

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası

ISMOILOV SARDOR

**XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA AMALGA
OSHIRILGAN YER-SUV ISLOHATLARI VA UNING OQIBATLARI**

5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

t.f.n. G. Normurodova

SAMARQAND - 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-10
--------------------	-------------

1-BOB. SOVET MUSTABID TUZUMINING O‘ZBEKISTONDA 1920- ЙИЛЛАРДА OLIB BORGAN IQTISODIY SIYOSATI VA UNING MOHIYATI.....	11-16.
--	---------------

1.1. XX-asrning 20-yillarida O‘zbekistonda iqtisodiy beqarorlik holati.....	11-16
--	-------

2-BOB. XX-ASRNING 20-30 YILLARDA OLIB BORILGAN YER- SUV ISLOHATLARI, UNING BOSQICHLARI.....	17-56
--	--------------

2.1. Yer -suv islohatlarining birinchi bosqichi va uning natijalari.....	17-23
2.2. Islohatlarning ikkinchi bosqichi va uning natijalari.....	24-35
2.3. Sug‘orish tizimi borasida amalga oshirilgan ishlar.....	36-45
2.4. O‘zbekistonda olib borilgan yer-suv islohatlarining yakuni va uning oqibatlari.....	46-56

XULOSA.....	57-59
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

RO‘YXATI.....	60-61
----------------------	--------------

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, O'zbekiston tarixini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Prezident I. Karimovning 1998 yil tarixchi olimlar bilan uchrashuvida o'zbek davlatchiligi tarixini, uning muammo va echimlarini tarixiy manba va adabiyotlar asosida xolis tadqiq qilish va kelajak avlodga etkazish kabi masalalar birinchi o'ringa qo'yilgan edi¹.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston tarixida mustabid sovet tuzumi davrida olib borilgan iqtisodiy siyosat, aniqrog'i yer-suv islohatlari va uning mazmun-mohiyati, oqibatlarini xolis o'rganib yoritish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston aholisining sovet davridagi eng katta fojeasi mustamlakachilik zulmi ostida azob chekkanligi bo'ldi. Rossiya imperiyasi davrida boshlab berilgan o'lkani iqtisodiy jihatdan tobe qilish siyosati mustabid sho'ro davrida yanada kuchaytirildi.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida 1920-30 yillarda mustabid tuzum tomonidan O'zbekistonda olib borilgan yer-suv islohati va oqibatlari tarixini xolis o'rganib yoritish maqsad qilindi. Mustabid tuzum O'zbekistonni markaz tarkibidagi mustamlaka sifatida o'z iskanjasida doimiy saqlab qolish va uni metropoliyaning xom ashyo bazasi va mahsulot bozori sifatidagi holatini yanada mustahkamlashga intildi. Bunday siyosat natijasida respublikaning iqtisodiy rivojlanishi bir tomonlama kechdi, uning qishloq xo'jaligi tobora ko'proq paxtachilik yo'nalishiga ega bo'lib bordi. Sovetlarning yer-suv islohati

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.

masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi - yirik xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar

ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik jamoalashgan sotsialistik xo‘jaliklarni qaror toptirish edi.

Bu davrda zo‘ravonlik bilan amalga oshirilgan kollektivlashtirish (jamoalashtirish) O‘zbekiston dehqonlari tarixiga fojiaiy sahifalar sifatida yozildi. Qishloq ahlini kuch ishlatish yo‘li bilan jamoa xo‘jaliklariga kirishga majbur etdilar, qarshilik ko‘rsatganlar, ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar “quloq” qilindi. “Quloq qilish” ommaviy qonunsizlikka aylantirilib yuborildi, u ma’lum darajada o‘ziga to‘q bo‘lgan xo‘jaliklarning mol-mulkini musodara qilish, “quloq-boy” oilalarni avvalgi yashash joylaridan tashqariga surgun qilishni nazarda tutardi.

Mustabid sovet davrida amalga oshirilgan yer-suv islohati o‘z navbatida, mulkdor qatlamlarni o‘z mulklaridan ayrilishiga va jamiyat tizimidan tabaqaviy xuquq, imtiyozlaridan mahrum bo‘ldilar. Yirik yer egalari, ruhoniylar va boshqalar “ekspluatator sinflar”, “ezuvchi sinflar”, “tekinxo‘r unsurlar” deya qatlam sifatidagi faoliyati inkor qilindi. Bu esa an’anaviy jamiyat strukturasi zo‘ravonlik bilan buzilishiga olib keldi. Bunday siyosat o‘z navbatida iqtisodiy, demografik yo‘qotishlarga ham olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga ber an javoblarida mustabid sovet tuzumi davriga munosabat bildirar ekan: “Biz shu paytgacha ko‘proq eski tuzumni tanqid qilish, uni inkor etish bilan band bo‘ldik. Albatta, boshimizdan kechirgan mudhish va mustabid turmushning butun asoratlarini anglab etish, yo‘limizni to‘g‘ri belgilab olish uchun istiqlolning dastlabki yillarida bu biz uchun albatta zarur edi. Ammo faqat o‘tmishni yozg‘irish, inkor etish bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi, shu bois, bugun biz ota-bobolarimizga ... sun’iy

ranglar bilan ajratib baho ber masligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davrning mohiyatini to‘g‘ri tushunishga harakat qilishimiz lozim”,².

Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, malakaviy bitiruv ishi mavzusini yoritishda quyidagi **maqsad va vazifalarni** amalga oshirish belgilandi. Ishning asosiy maqsadi 1920-30 yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer -suv islohatlari va uning oqibatlari tarixini haqqoniy yoritish hisoblanadi. Vazifalari esa quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- XX-asrning 20-yillarida O‘zbekistonda iqtisodiy beqarorlik holati va uning mohiyati ochib ber ish;

- 1920-yillarda olib borilgan yer-suv islohatlari va uning bosqichlarini tahlil qilish, ya’ni:

- Yer-suv islohatlarining birinchi bosqichi va uning natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish;

- Islohatlarning ikkinchi bosqichi va uning oqibatlarini yoritish;

- XX-asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv siyosati va uning yakuniy oqibatlari to‘g‘risida xulosa chiqarishdan iborat.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Sovet davrida yaratilgan tadqiqot va adabiyotlar metodologiyasi asosan o‘rganilayotgan davrga asosan bir tomonlama yondoshilib, mustabid tuzum siyosati manfaatlarini oqlash bilan yoritildi.

Shu bilan birgalikda bu davrda sovet davlatining agrar sohada olib borilgan siyosati o‘ziga xos muhim jihatlari bilan xolis yoritilgan F.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

Xo'jayev, R.X. Aminova, I. Alimov va boshqalarning³ tadqiqot va kitoblarini keltirish mumkin.

Mustaqillik yillarida mazkur mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilib, ularning o'ziga xos xususiyati tarixiylik, haqqoniylik, xolislik, qiyosiy tahlil va boshqa yangi metodologik yondoshuvli tamoyillarni o'z ichiga oldi. Tarixchi olimlardan D. Alimova mas'ul muharrirligidagi hammualliflikda yaratilgan monografiyalar, A. Golovanov, B. Xasanov, R. Shamsutdinov va boshqalarning⁴ asarlari, monografiyalari shular jumlasidandir.

Malakaviy bitiruv ishining manbaviy asosini hammualliflikda yaratilgan O'zbekistonning yangi tarixi kitobining 2-qismi bo'lgan - O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida, R. Shamsutdinovning "Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rta Osiyo respublikalari misolida)", shu muallifning "O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlarini" kabi asarlar⁵ va boshqa manbalar bitiruv ishi oldiga qo'yilgan vazifalarni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

³ Хўжаев Файзулло. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Toshkent: Fan, 1978.; Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.). – Т., 1963. – С.240.; Алимов И.А. Узбекское дехканство на пути к социализму. – Ташкент, 1974.

⁴ Тарих шохидлиги ва сабоқлари чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001. – 464 б.; Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937. – Ташкент, 1992. – 160 с.; Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX - первой четверти XX вв. – Самарканд, 2007. – 384 с. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент, 2003. – 542 б.; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. //Коллектив авт. – Т.: Шарк, 2000. – 672 с.

⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Toshkent, 2000. – 688 б; Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Toshkent, 2003. – 542 б; Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари.- Toshkent:

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi ilk bor XX-asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi uning mazmun-mohiyatini yoritish bilan belgilanadi. Tarixiy, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida mazkur bitiruv ishda ilk bor O‘zbekistonda amalga oshirilgan er-suv islohatlari va bu siyosatning oqibatlari o‘rganilib yoritildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uning quyidagi ilgari surilgan masalalarni yoritilishida o‘z aksini topgan: XX-asrning 20-yillarida O‘zbekistonda iqtisodiy beqarorlik holati va uning mohiyati ochib ber ish;- 1920-yillarda olib borilgan yer-suv islohatlari va uning bosqichlarini tahlil qilish, ya’ni er -suv islohatlarining birinchi bosqichi va uning yakunlari to‘g‘risida ma’lumot berish; islohatlarning ikkinchi bosqichi va uning oqibatlarini yoritish; XX-asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv siyosati va uning yakuniy oqibatlari tahlil etildi va ilmiy xulosalar berildi.

Tadqiqotning predmeti va ob’ekti. Tadqiqotning predmeti va ob’ekti XX-asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlari va uning oqibatlari tarixi hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan olingan umumiy xulosa va natijalardan talaba yoshlar milliy o‘zlikni anglash, barkamol avlod bo‘lib shakllanishi uchun, o‘z milliy tarixi to‘g‘risida xolisona mustaqil fikr-mulohazalar bildirish, shuningdek O‘zbekiston tarixi bo‘yicha etarli ko‘nikmaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ta’lim tarmoqlari saytiga kiritilgan bitiruv ishi mavzusidan o‘quvchi, talabalar mustaqil ish, kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning qisqacha mazmuni. Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobida, sovet mustabid tuzumining O‘zbekistonda olib borgan iqtisodiy siyosati va uning mohiyati, 20-yillarida O‘zbekistonda iqtisodiy beqarorlik holati to‘g‘risida umumiy gapiriladi. Jumladan, bu bobda “harbiy kommunizm” siyosati oqibatida vayronaga aylangan xalq xo‘jaligini tiklash va turli ijtimoiy kuchlar, ijtimoiy harakatlar siyosiy kurashlarining kuchayganligi, bolsheviklar rahbariyatining “sotsialistik qurilish” strategiyasini isloh qilish borasidagi dastlabki urinishlari va turkiston bilan Markaz o‘rtasida imperiyacha munosabatlarning yanada mustahkamlanishi masalalariga qaratilgan.

“Harbiy kommunizm” siyosati amalga oshirilishi natijasida, haqiqatda bolsheviklar tasavvuridagi harbiylashgan jamiyat yuzaga keldiki, uning asosiy belgilar boshqaruvni mutlaq markazlashtirish va yalpi davlatlashtirish, xususiy mulkni bekor qilish, xo‘jalik yuritishning musodara usullari, mavjud bozor iqtisodiyoti tizimini barbod qilish, milliy va insonparvarlik qadriyatlarini markscha sinfiy qadriyatlar bilan zo‘ravonlarcha almashtirishdan iborat edi. Bu siyosat natijasida, iqtisodiyotning halokatli inqirozi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi yuz berdi. Yuzaga kelgan bu jiddiy vaziyat natijasida, 20-yillarning boshlarida “sotsialistik qurilish”ning yangi andozasini qurishga kirishildi. Yangi iqtisodiy siyosatning muhim bo‘g‘inlari oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirish, savdosotiqni erkinlashtirish, sanoatda, xizmat ko‘rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan qisman foydalanish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo‘ldi.

Bitiruv ishning ikkinchi bobi - O‘zbekistonda 1925-1926-yillarda Farg‘ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida, ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va o‘rta Zarafshon okruglari)da hamda uchinchi bosqichda 1928-1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm

okruglarida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari to'g'risida gapiriladi. Ushbu bobda, shuningdek "Qo'shchi" ittifoqi tashkil topishi hamda ittifoqqa asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bu dastlabki bosqichda xulosa qilib aytganda, yer - suv islohatining dastlabki bosqichi yakunida dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish uchun zamin yaratildi. Endilikda mehnatkash xalqni birdan bir yagona yo'li - jamoa xo'jaliklariga majburan birlashish masalasi ko'ndalang qilib qo'yildi.

1-BOB. SOVET MUSTABID TUZUMINING O‘ZBEKISTONDA OLIB BORGAN IQTISODIY SIYOSATI VA UNING MOHIYATI.

1.1. XX-asrning 20-yillarida O‘zbekistonda iqtisodiy beqarorlik holati.

1920 yillarda o‘zbek xalqi tarixida o‘ziga xos bir bosqich bo‘ldi. Bu davr bolsheviklarning oktyabr to‘ntarishi, istiqloqlolchilarga qarshi kurash va “harbiy kommunizm” siyosati oqibatida vayronaga aylangan xalq xo‘jaligini tiklash va turli ijtimoiy kuchlar, ijtimoiy harakatlar siyosiy kurashlarining kuchayganligi, bolsheviklar rahbariyatining “sotsialistik qurilish” strategiyasini isloh qilish borasidagi dastlabki urinishlari va Turkiston bilan Markaz o‘rtasida imperiyacha munosabatlarning yanada mustahkamlanishi bilan ajralib turadi.

“Harbiy kommunizm” – sovet mustabid davlat tuzumining dastlabki andozasi bo‘lib, u o‘zining mutlaqo yaroqsizligini ko‘rsatdi, u yer kin fikrlash va yer kin mehnatni, ommaning tashabbusi va ijodini bo‘g‘di⁶. “Harbiy kommunizm” siyosati amalga oshirilishi natijasida, haqiqatda bolsheviklar tasavvuridagi harbiylashgan jamiyat yuzaga keldiki, uning asosiy belgilar boshqaruvni mutlaq markazlashtirish va yalpi davlatlashtirish, xususiy mulkni bekor qilish, xo‘jalikyuritishning musodara usullari, mavjud bozor iqtisodiyoti tizimini barbod qilish, milliy va insonparvarlik qadriyatlarini markscha sinfiy qadriyatlar bilan zo‘ravonlarcha almashtirishdan iborat edi. Bu noilmiy siyosat natijasida, iqtisodiyotning halokatli inqirozi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi yuz berdi.

⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. - В. 178.

Yuzaga kelgan bu jiddiy vaziyat kommunistik imperiya rahbarining bu iqtisodiy siyosatning mazmuni va mohiyatini qaytadan ko‘rib chiqishga majbur qildi. Natijada, 20-yillarning boshlarida “sotsialistik qurilish”ning yangi andozasini qurishga kirishildi. Bu navbatdagi siyosatning zamirida – tovar-bozor munosabatlarining ayrim belgilarini tiklashni, xo‘jalik yuritishda tashabbuskorlikka yo‘l berishni, etarli vositalariga ega bo‘lgan tadbirkorlikni izdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklash ishiga jalb qilishni nazarda tutar edi.

RKP (b)ning X s‘ezdida (1921 y. mart) rasman qabul qilingan **Yangi iqtisodiy siyosatda** o‘z ifodasini topdi. Yangi iqtisodiy siyosatning muhim bo‘g‘inlari oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish sanoatda, xizmat ko‘rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan qisman foydalanish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo‘ldi.

Yangi iqtisodiy siyosat ob‘ektiv jihatdan madaniy rivojlanishga imkon yaratdi. Biroq amalga oshirish jarayonida chuqur ziddiyatlar namoyon bo‘ldi. Uning ziddiyatlar ayniqsa turkistonda amalga oshirilganda yaqqol ko‘zga tashlandi. Rasmiy jihatdan Turkistondagi Yangi iqtisodiy siyosat yo‘li TKP VI s‘ezdi (1921 yil yanvar) va respublika sovetlarining X qurultoyi (1921 yil sentyabr) qarorlarida tasdiqlandi⁷.

Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tilishi munosabati bilan agrar ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan mustaqil ish olib boruvchi, mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonning manfaati oldingan o‘ringa chiqdi. Shu bilan birgalikda, xo‘jalik jarayonini boshqarishda davlatning faol roli belgilab berildi.

⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. - В. 179.

Yangi iqtisodiy siyosat arafasida paxtachilikning inqirozi ham kuzatilgan edi⁸. Shuning uchun ham markaziy hukumat birinchi navbatda paxtachilikni tiklashga tashvishli holat sifatida e'tibor bera boshladi. Mamlakatda paxtachilikni markazlashgan holda rivojlantirish uchun RSFSR Oliy Xalq xo'jalik Kengashi huzurida Bosh Paxta qo'mitasi (Glavxlopkom) va paxta etishtiruvchi respubliklarda unga buysunadigan paxta qo'mitalari ta'sis etildi.

Irrigatsiyani qayta tiklash, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash muammolari o'ta qiyinchilik bilan hal qilinayotgan edi. Hokimiyat organlari suv xo'jaligini tiklash ishlariga keng dehqonlar ommasini majburan jalb qilishga asosiy e'tibor ber dilar. Turkistonlik dehqonlarning majburiy bepul mehnati irrigatsiya shoxobchalarini ta'mirlash masalalarini qisman hal qilishga yordamlashdi. Lekin suvdan foydalanish tizimini ta'mirlash va tartibga solish sohasidagi asosiy ishlarni faqat aholining kuchi bilangina amalga oshirib bo'lmadi.

Turkistonda Yangi iqtisodiy siyosatni mustahkamlash sohasidagi qonunchilik majmuida Turkiston Sovetlari MIQning 1922 yil 11 apreldagi "Natura solig'i haqida" gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qarorga ko'ra, dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan oziq-ovqat razvyertkasi o'rniga yalpi hosilning 10 foizi miqdorida oziq-ovqat solig'i belgilandi. Lekin oradan ko'p o'tmay xo'jalikning katta kichikligidan kelib chiqib, soliqni tabaqalashtirish joriy etildi. Soliq quyidagi proporsiyalarda olinishi belgilab qo'yildi: 2 desyatinagacha yeri bo'lgan xo'jaliklardan hosilning 5 foizi miqdorida, 2-4 desyatinagacha yeri bo'lgan xo'jaliklardan – 10 foizi, 4-6 desyatinagacha yer i bor xo'jaliklardan – 12 foizi, 6-8

⁸ Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.). – Т., 1963. – С.240.

desyatinagacha yeri bor xo'jaliklardan – 14 foizi, 8-20 desyatinagacha yeri i bor xo'jaliklardan 16 foiz miqdorida va hokazo⁹.

Qishloq xo'jaligining yuksalishini ta'minlashda iqtisodiy rag'batlantirishning boshqa vositalari ham qo'llandi, bular qat'iy valyutaning joriy etilishi, qarz berishning Yangi tartibinibelgilanishi, dehqonlarga davlat tomonidan qarz berishni kengaytirish, imtiyozlar belgilanishi, qishloq koopyeratsiyasining avj oldirilishidan iborat edi.

XX asrning 20-yillariga kelib, sovet davlati xalq xo'jaligini tiklash asosan tugallandi. Shu davrdan boshlab O'zbekistonda sanoatlashtirish 1-jahon urushi va fuqorolar urushi natijasida inqirozga uchragan mayda, kustar korxonalarni tiklash asosida rivojlana boshladi. Tiklash davrining muvafaqqiyatli tugallanishi kun tartibiga sanoat qurilishi ko'lamini jiddiy ravishda kengaytirishdan iborat yangi vazifa qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda amalga oshirildi.

1925 yil dekabrda VKP (b) XIV syezdi "sosialistik industrlashtirish (sanoatlashtirish)" yo'lini avj oldirishni e'lon qildi. Shu asosda sovetlar hukumati tomonidan sanoatlashtirish siyosati O'zbekistonda 1925-1940 yillarda amalga oshirildi¹⁰. Bu siyosat sovetlar hukumati va kompartiyaning shovinistik, mustamlakachilik siyosatining tarkibiy, ajralmas qismi edi. Sanoatlashtirish siyosati qishloq hisobidan amalga oshirildi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarning xarid narxlari pasaytirildi. Bu dehqonlarning qashshoq bo'lishiga olib keldi. O'z navbatida respublikada oziq-ovqat muammosi keskinlashdi. Qishloq xo'jaligi 1928 yil kuzigacha bir yillik

⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – В. 184.

¹⁰ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 26. Shamsutdinov R. Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013. – В. 467.

rejalar asosida boshqarilgan bo'lsa, endi besh yillik rejalar joriy etildi. 1-besh yillik davri – 1928 yil oktyabr-1932 yil dekabr oylarini o'z ichiga oldi. Bu siyosatni oqlash maqsadida “SSSR yagona xo'jalik kompleksi” g'oyasi ilgari surildi.

1931-1933 yillardagi ocharchilik O'zbekistonda ayniqsa dahshatli kechdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, bu ochlik mamlakatda bir milliondan ortiq vatandoshlarimizning yostig'ini quritgan. Bu ochlik fojeasi sovet davrida olib borilgan adolatsiz siyosatning natijasi edi. Bu davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligi faqat bir tomonlama – paxtachilik bo'yicha rivojlantirdi, insoniyat hayot tarzining birinchi va asosiy zarur sharti bo'lgan don mahsulotlari va oziq-ovqat bilan ta'minlash to'g'risida ongli ravishda bosh qotirilmadi. Bulardan tashqari Markazda mas'ul davlat lavozimida o'tirgan shaxslarning ongli ravishdagi to'sqinliklari sababli respublikaga tegishli bo'lgan don mahsulotlari yetkazib berilmadi. Xususan, 1931-1932 yillarda belgilangan fond hisobidan O'rta Osiyoga noyabr va dekabr oylarida yetkazilishi lozim bo'lgan donlarning hajmi 30 foizga qisqartirilgan. Bu ishlarning hammasi birga qo'shilib o'lkada umummilliy ochlik, qashshoqlikning ommaviy tus olishiga sabab bo'ldi. Ochlik va qashshoqlik esa turli xildagi xavfli va yuqumli kasalliklarni keltirib chiqardi¹¹.

20-yillarni oxiri va 30-yillarning boshlarida respublikada olib borilgan koopyer ativashtirish, majburiy kollektivlashtirish harakati natijasida xususiy mulkchilik tugatildi, hamma narsa davlat mulkiga aylantirildi. Xususiy ishlab chiqarish tugatildi, kosib-hunarmandlar davlat uchun ishlaydigan bo'ldilar. Xususiy, ya'ni yer kin savdo man etildi, savdo-sotiq hukumat idorasi va nazorati ostiga o'tdi. Qisqasi, xususiy xo'jalik bitirilib, “xalq xo'jaligi” deb atalagan davlat tizimi o'rnatildi. Barcha soha va

¹¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. - В. 184.

tarmoqlar markazdan – Moskvadan idora etiladigan bo'ldi. Yuqoridagilarning barchasi mamlakatda va ijtimoiy qatlamlarning moddiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatib bordi.

2-BOB. 1920-YILLARDA OLIB BORILGAN YER -SUV ISLOHATLARI VA UNING BOSQICHLARI.

2.1. Yer -suv islohatlarining birinchi bosqichi va uning natijalari

Azaldan sun'ish sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati maskani hisoblangan va aholisining mutlaq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bo'lgan O'zbekiston xalqlari yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki, o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Buning ustiga podsho Rossiyasi bosqinidan so'ng, ko'plab serhosil, unumdor yerlar Rossiyadan ko'chirib keltirilgan oilalar foydasiga majburan olib berilgan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab yer to'g'risidagi dekretni (1917 yil oktyabr) qabul qilgan bo'lsada, ammo uni amalga oshirishdan kuzatilayotgan va uzoqqa mo'ljallangan maqsadlari boshqa edi. Sovetlarning yer-suv islohati masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi, yirik xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik jamoalashgan sotsialistik xo'jaliklarni qaror toptirish edi. O'zbekistonda ham mana shu prinsipial maqsadlarni ko'zlab yer-suv islohati o'tkazilishga kirishildi. O'rta Osiyoda amalga oshirilgan yer-suv islohoti tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, bu islohot 2 bosqichda: Birinchisi, 1921-1922- yillarda Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda; Ikkinchisi, 1925-1929-yillarda O'zbekiston SSR da amalga oshirildi¹².

¹² Shamsutdinov R. Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 468.

1925-29-yillarda O'zbekiston SSRda navbatdagi ikkinchi yer-suv islohoti amalga oshirildi. Mazkur islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 3 bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich, 1925-1926-yillarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va o'rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqich, 1928-1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida islohot amalga oshirildi.

O'rta Osiyodagi dastlabki Yangi iqtisodiy siyosatni isloh qilish yillarida agrar o'zgarishlarning muhim yo'nalishi – muvofiqlashtirilgan yer siyosatining o'tkazilishi bo'ldi. Agrar islohatning Yangi bosqichining umumiy vazifalari TKP V s'ezdi va Turkiston sovetlarining IX qurultoyi (1920 yil sentyabr) qarorlarida belgilab berilgan edi. Bu vazifalarni **3 guruhga** bo'lish mumkin:

- Birinchi vazifa, sotsialistik yo'nalishda bo'lib, u “mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy-quloq xo'jaliklarni”ni tugatish va ko'chmanchi aholini o'troq holatga o'tkazishdan iborat edi.
- Ikkinchi vazifa, “inqilobiy –demokratik xususiyat”ga ega bo'lib, u yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlashni o'z ichiga olardi.
- Uchinchi ustivoryo'nalish, podsho Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining kuchli sarqitilarini engishga qaratilgan bo'lib, bu sarqitlar shu narsada ifodalagan ediki, mahalliy aholi yerlarining ko'pchilik qismi, ayniqsa chorizmning ko'chirish siyosati natijasida kelgindi rus dehqonlari tomonidan egallab olingan edi¹³.

¹³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида... - Б. 182

Islohatni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish 1921 yilning bahoridan kirishildi. Islohat o'tkazish uchun dastlab Ettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari olindi. Islohotni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – mahalliy hamda Turkistondagi boy rus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Chunki o'z vaqtida mustamlakachi ma'murlari tomonidan rus dehqonlariga eng yaxshi va hosildor yerlar ajratilgan edi. Ushbu islohotning asosida mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy-quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanchilarni o'troq hayotga o'tkazish, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlash va eng asosiysi rus kelgindilarning ortiqcha yer larini musodara qilish orqali Rossiya impyer iyasi mustamlakachlik sarqitlarini yengish edi.

Islohatning birinchi bosqchida asosiy vazifa ko'chirib keltirilgan ruslarning yer larini tortib olishdan iborat siyosiy “foydali” ishlarni amalga oshirish bo'ldi. Ko'chirib keltirilganlarning asosiy qismi quloqlar deb e'lon qilindi. Yer -suv islohati favqulodda tadbirlar shaklida o'tkazildi. Islohatning asosiy vazifasi – ma'muriy tazyiq o'tkazishdan iborat bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan islohatning strategik vazifalariga muvofiq ko'chirib keltirilgan ruslardan yer larni musodara qilib olish bilan bir qatorda vaqf yerlarini tortib olish, boylar, mannoplar, savdogarlar, diniy xizmatchilar va qishloq hamda ovullarning “mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari” degan boshqa vakillari yer larini kamaytirish yuzasidan jiddiy ishlar qilindi.

Bu jarayon boy xo'jaliklarga ma'muriy choralar va tazyiq o'tkazish yo'li bilan olib borildi. Bu xil tadbirlarga batrak-dehqonlar ommasi ham keng jalb etildi. SHu maqsadda, joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi “Qo'shchi” uyushmalari tuzila boshladi. “Qo'shchi” uyushmlari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib bordi.

Lekin vaqt o'tishi bilan ko'chirib keltirilgan ruslardan yer larni musodara qilish bilan bir qatorda vaqf yerlari tortib olindi, boylar, savdogarlar, diniy xizmatchilar va qishloq hamda ovullarning mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari degan boshqa vakillarining yerlari kamaytirildi. Yer va suvni taqsimlash jarayoni bir tomondan yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloqdagi siyosiy vaziyatni o'ta keskinlashtirib, sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Turkiston qishloqlarida ijtimoiy va millatlararo tanglikni vujudga keltirdi.

Shu o'rinda «quloq»lar, quloqlashtirish atamasiga izoh beradigan bo'lsak quloqlashtirish - «**quloqlar**» (rus. kulachestvo - mushrumzo'r) - mustabid sovet rejimining badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati (1929-1933) dir. O'rta Osiyoda yer -suv islohoti o'tkazilishi jarayonida qishloqlardagi badavlat xonadonlarni «mushtumzo'r» («quloq») sifatida badarg'a qilish boshlangan. Bu islohot davridayoq 28 ming yirik va o'rta mulkdorlarning xo'jaliklari tugatilgan va ularning yerlari musodara qilingan edi¹⁴.

Ushbu masalaning quloqlashtirish va jamoalashtirish sohasiga e'tibor qaratgan tarixchi olim Rustambek Shamsutdinovning aytishicha¹⁵, O'zbekistonning o'sha davridagi rahbarlaridan – Akmal Ikromov, Fayzullo Xo'jaev, Yo'ldosh Oxunboboevlar va ularning atrofdagilari esa o'rta Osiyo byurosi ko'rsatmasidan, uning chizgan chizig'idan chiqa olmay, ko'p holatlarda murosachilik, taslimchilik yo'lini tutishga majbur bo'ldilar. Natijada, ko'plab milliy kadrlarimiz nohaqdan qoralanib, rahbarlik lavozimlaridan olib tashlanib, qamoqqa olinib, har xil suiqasd, tajovuzlar bilan yo'q qilib yuborilgan. Bunday siyosatning ilk qurbonlaridan biri

¹⁴ Shamsutdinov R. Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – B. 468.

¹⁵ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент: Шарқ, 2001. Б.31-32.

inomjon Xidiraliev bo'lgan. N. Xidiraliev o'zining millatparvarligi, zo'r bilimdonligi, nazariy, siyosiy va amaliy jihatdan chiniqqanligi, o'ta qat'iyligi tufayli o'zbek dehqonlari manfaatini yoqlab chiqib, shu ezgulik yo'lida qurbon bo'lgan milliy arboblardan edi.

N. Xidiraliev O'zbekistondagi milliy qishloqlarda boylar juda ozchilikni tashkil etgani bu yerda Rossiyadagidek quloqlar yo'qligini ko'rsatib, kambag'al dehqonlar bilan o'rta hol dhqonlarni birlashtirish va shu yo'l bilan qishloqda sovet tuzumini mustahkamlash, eng muhim, qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish uchun osoyishta sharoit yaratib mumkinligini asoslaydi. U ko'p hollarda dehqonlarni yoqlab chiqqan va qandog' xo'jaliklarni quloq deb atash mumkinligi to'g'risidagi fikrlarini yer kin bayon qilgan¹⁶.

Yuqorida "Qo'shchi" ittifoqi to'g'risida gapirilgan edi, bu ittifoq 90 mingdan ortiq qishloq aholisini birlashtirgan bo'lib, uning a'zolari tortib olingan yer larni birinchi navbatda o'zlariga olishardi. Ular "mehnat bilan shug'ullanmaydigan xo'jaliklar"ni anqlar, badavlat xo'jaliklarning yer, chorva mollari, mehnat qurollarini hisobga olishar, "yashirib qo'yish"ga urinishlarni fosh etishardi. "Qo'shchi" ittifoqi yordami bilan "mehnat bilan shug'ullanmaydigan" 8034 ta xo'jalik tugatilgan edi¹⁷.

Turkiston ASSRda meliorativ shirkatlari 1923 yildan tashkil qilina boshlangan bo'lib, lekin ularning soni oz miqdorda edi. 1924 yilda 9 ta meliorativ shirkatlari tashkil qilingan bo'lib, ulardan 2 tasi Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatgan.

Umuman, islohat jarayonida yer tuzish jamg'armasiga 1.722.626 desyatina yer qo'shildi. Shulardan ko'chirib keltirilganlar posyolkalarini,

¹⁶ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фojeаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Б.37.

¹⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... - Б. 183.

xutorlar va birinchi kelib egallab olingan joylarni tugatishdan olingan yerlar 205.059 desyatinani, ovrupalik aholi posyolkalarida belgilangan me'yordan ortiqcha olingan yer larni tortib olishdan qo'lg'a kiritilgan yerlar - 85.107 desyatinani, erkin va ko'chib kelganlar jamharmasini tugatishdan olingan yerlar - 1.321.720 desyatinani, "mehnat bilan shug'ullanmaydigan" xo'jaliklardan tortib olingan yerlar – 40.835 desyatinani, monastirlar, chyer kovlar va vaqf yer larini begonalashtirish natijasida qo'lg'a kiritilgan yerlar - 27.016 desyatinani tashkil qilgan¹⁸.

Shunday qilib, O'zbekistonda 1921-1922 yillar davomida yer-suv islohatining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi. Masalan, Samarqand viloyatida 350 ta katta yer egalaridan 13 ming desyatina yer lar tortib olindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan 1,7 mln. desyatina yerlar tortib olindi, ularning 117 ming desyatinasi yer sizlarga va kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida "Qo'shchi" ittifoqi tuzildi. Bu ittifoqqqa asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushar edi. Uning faoliyati bolsheviklar tomonidan boshqarilar edi. Bu sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakat edi.

1921-1922 yillarda o'tkazilgan yer-suv islohati natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Ettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uezdida 1.722.626 desyatina yer musodara qilindi.¹⁹ Ana shu yer larda 117.512 desyatina yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga berildi va 3 ming xo'jalik tashkil etildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517 ot, 87 tuya, 1042 sigir va 133 eshaklar ham taqsimlab ber ildi. Bundan tashqari kambag'allarga mehnat

¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... - Б. 183.

¹⁹ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.352.

qurollari ham ulashildi²⁰. Yer-suv islohati davrida ko'chirib yuborilgan oilalardan 250 ming botmondan ortiq don tortib olindi va shundan atigi 12,8 ming botmonni mahalliy kambag'al batraklarga bo'lib berildi.

Xulosa qilib aytganda, yer-suv islohatining birinchi bosqichi yakunida dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish uchun zamin yaratildi. Endilikda mehnatkash xalqni birdan bir yagona yo'l - jamoa xo'jaliklariga majburan birlashish masalasi ko'ndalang bo'lib tutardi. Ammo, bu aslida oddiy xalqni aldashdan boshqa narsa emas edi. Chunki yer dehqonga berilmadi, balki bir mulk shaklidan ikkinchi mulk shakliga aylantirildi, xolos. ya'ni yerga xususiy mulkchilik tugutilgan bo'lsada, jamoa (amalda davlat) mulki bo'lib qoldi.

²⁰ O'sha asar... , - 353.

2.2. Islohatlarning ikkinchi bosqichi va uning yakuni.

1921-1922 yillardagi yer islohatiga qaramasdan, o'zbek qishloqlarida hali oldingi mustamlakachilik davriga xos bo'lgan ko'pgina o'ziga xos xususiyatlar, birinchi navbatda kam yerlilik va yer sizlik saqlanib qolgan edi. 1925 yilga kelib, har 100 ta xo'jalikdan 13 tasi ekin ekiladigan yer ga ega emas edi. Yersiz va 2 desyatinagacha yerga ega bo'lgan xo'jaliklar 71,8 foizni tashkil etardi²¹.

O'zbekiston SSR tuzilgan paytda ham respublikada sovetchasiga agrar siyosatni amalga oshirish to'la hal etilmagan edi. 1925 yil boshdida Farg'ona viloyatida umuman yersiz dehqonlar 3,4 foizni, 3 desyatinagacha yeri bor xo'jaliklar 83,1 foizni tashkil etardi. Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich mos ravishda 2,1 va 51,5 foizga teng edi. Toshkent viloyatida esa yersiz dehqonlar 12,5 foizni tashkil etardi. Hatto 1925 yilga kelib ham Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida 277194 xo'jaliklar yoki bo'lmasa bu viloyatlardagi jami xo'jaliklarning yarmidan ziyodi yerga muhtojlilarni tashkil etgan²². O'zbekistonning asosiy paxtakor viloyat va tumanlarida yerning katta qismi Yangi iqtisodiy siyosat asosida xo'jalik yuritayotgan o'rtahol dehqonlar qo'lida to'plangan edi. Ular respublikada etishtirayotgan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini etkazib berar edi. O'zbekiston Kompartiyasining s'ezdida (1925 yil noyabr) bu hol feodal munosabatlarning qoldig'i deb baholandi va xususiy mulkchilik munosabatlarini sotsialistik iqtisodiyot ta'siriga buysundirilishi kerakligi ta'kidlandi.

²¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... - Б. 327.

²² Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. // Коллектив авт. – Т.: Шарк, 2000. – С. 448.

1925-1929 yillarda o'tkazilgan yer-suv islohati O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1925-yil 2 dekabrda "Yer va suvni natsionalizatsiya qilish" to'g'risidagi va "Yer va suv islohati to'g'risida"gi dekretlar asosida amalga oshirildi²³. O'tkazilgan islohat davomida faqat Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida 254,2 ming desyatina yer jamg'armasi hosil bo'ldi.

1926 yil noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP (b)ning 2-qurultoyida qabul qilingan "Yer islohati haqida"gi rezolyusiyada o'zbek qishlog'ida quloqlar borligi zo'rma-zo'raki e'tirof etilib, "yerga" mulkchilikning mavjudligida ifodalanadigan shahar va qishloqning kichik bir guruh pomeshchiklari va boy-quloq elementlari qo'lida ekin ekiladigan butun yer ning 1/3 qismi jamlanganligi va qishloqdagi kambag'al, o'rta hol tabaqalarning asoratga solinishiga olib keluvchi feodal munosabatlarning qoldiqlari qishloqda hanuzgacha barham topmagan" degan fikr ilgari surilgan²⁴.

1925 yili O'zSSR Yer ishlari Xalq komissarligi Farg'ona vodiysidan ko'chirilishi lozim bo'lgan kontingentni belgilab berdi. Marg'ilon aholisi 257.980 kishi bo'lib, ulardan 148004 tasi ko'chirilishi lozim, bu yerda aholining 57,4%i ortiqcha, Namangan aholisi 227771 kishi bo'lib, ulardan 139248 kishi ko'chirilishi lozim, 61% axoli ortiqcha, Andijon aholisi 272080 kishi, ulardan 138575 kishi ko'chirilishi lozim, 51,3%i ortiqcha, Ko'qon aholisi 342567 kishi, ulardan 647410 kishi ko'chirilishi lozim, 64,7% ortiqcha, jami 1100398 kishi bo'lib, ulardan 647410 kishi ko'chirilishi lozim, 58,8%i ortiqcha deb topildi²⁵. 1925 yilgi ma'lumotga ko'ra, xar 100 ta

²³ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.352.

²⁴ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Б.39.

²⁵ Д.Т.Собирова, Н.Акбарова. XIX аср охири - XX аср бошларида Фарғона водийсидаги оилавий маросимларда этномаданий муносабатлар // "Фарғона

xo‘jalikdan 13 tasi ekin ekiladigan yerga ega emas edi.

Yersiz va 2 desyatinagacha yerga ega bo‘lgan xo‘jaliklar 71,8 foizni tashkil etar edi. O‘zbek qishlog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari, uning mayda xamda tarqoq yer uchastkalariga bo‘linganligi edi. Mayda dexqonchilik xo‘jaliklari kadimiy sug‘orma dehqonchilikka asoslangan hududlar, xususan, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Zarafshon, Xorazm vohalarida to‘plangan edi. Aholini ko‘chirish natijasida dehqonlarni yer bilan ta‘minlash masalasi hal etilishi lozim edi.

1926 yildan boshlab respublikada rejali aholini ko‘chirish boshlanadi. Boshqa okruglarda bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida rayonlar ichkarisida, okruglararo hamda respublika tashqarisiga aholini ko‘chirish amalga oshiriladi. 1926 yildan Yozovon cho‘lini o‘zlashtirish ishlari boshlanadi²⁶.

1929 yildan esa aholi ko‘chirishning ikkinchi eng asosiy bosqichi - respublikaning okruglari bo‘ylab ko‘chirish avj oldiriladi. Shu bilan birga ichki ko‘chirishlar ham davom etadi. Masalan, 1929-30 yillarning o‘zida birgina Andijon okrugi Andijon rayonida zichlik yuqori bo‘lgan qishloq sovetlaridagi 630 xo‘jalikning 450 tasi o‘zlari yashaydigan rayondagi Madiyorchek-Dalvarzin yerlarini o‘zlashtirish, 170 tasi Qoraqappoq, Nayman, Begovot yer larini o‘zlashtirish, Jalakudukdan 230 xo‘jalik, jami 570 xo‘jalik Buloqboshi yerlarini o‘zlashtirish maqsadida Norindan 75 xo‘jalik o‘zlari yashaydigan rayondagi Ko‘g‘ay xududiga, SHaxrixondan 565, Namangandan 560 xo‘jalik, jami 1125 xo‘jalik Bapiqchi rayonidan Bo‘z rayoniga, hammasi bo‘lib 2400 xo‘jalik ko‘chiriladi. Vodiylklarning asosiy ko‘pchiligi Surxondaryoga ko‘chiriladi. Surxondaryoning ko‘chmanchi chorvador bo‘lgan tub axolisiga vodiylklr paxta etishtirish ilmini o‘rgatishlari lozim edi.

водийси тарихи янги тадқиқотларда” / Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Андижон, 2015. -256.

²⁶ O‘sha asar, -B. 256.

1929-30 yillarda Andijon okrugidan Toshkent okrugiga 700 xo‘jalik, Samarqand okrugiga 700 xo‘jalik, Zarafshon okrugiga 60 xo‘jalik, Surxondaryo okrugiga 1460 xo‘jalik, jami 2920 xo‘jalikni ko‘chirish rejalashtiriladi ²⁷.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston viloyatlarida yer -suv islohoti 1928-1929-yillarda o‘tkazildi.

1924-yil, 1-noyabrda tashkil etilgan Qashqadaryo viloyatida yer -suv islohoti 1929-yil bahorida yakun topdi. Bu o‘tkazilgan tadbir natijasida katta yer yegallari yo‘q qilindi, amirlikning katta amaldorlari va savdogarlari xo‘jaliklari tugatildi.

Ayni paytda sovet hukumati o‘z yerida halol mehnati bilan kun ko‘radigan dehqon xo‘jaliklarni ham islohot girdobiga tortib quloqlarga aylantirgan, ularning yer -suvi, ot-ulovi va bor-bisotidan mahrum yetgan edi.

Qashqadaryo viloyatida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra musodara etilgan yerlar 17.906 tanob sug‘oriladigan va 7.315 tanob lalmikor zamindan iborat bo‘lib, jami 25311,23 tanobni tashkil yetgan edi²⁸.

Qashqadaryo viloyatida yer -suv islohati davomida jami bo‘lib 989 xo‘jalik batamom qilindi. Shundan 339 tasi boylarniki, 195 tasi amir amaldorlarniki, 174 tasi ruhoniylarniki, 53 tasi savdogarlarniki, 41 tasi sudxo‘rlarniki bo‘lgan. Bu xo‘jaliklarning yo‘q qilinishi oqibatida 12556 tanob sug‘oriladigan, 5290 tanob lalmikor yerlar, 1001 ot, 1194 ho‘kiz, 274

²⁷ Д.Т.Собирова, Н.Акбарова. XIX аср охири - XX аср бошларида Фарғона водийсидаги оилавий маросимларда этномаданий муносабатлар // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” / Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Андижон, 2015. -256-257 бетлар.

²⁸ O‘zbekistonda yeri -suv munosabatlaritarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma’ruzalar matni. - Samarqand, 2013.

tuya tortib olindi²⁹.

Ayni paytda sovet hukumati o'z yerida halol mehnati bilan kun ko'radigan dehqon xo'jaliklarini ham islohat girdobiga tortib quloqlarga aylantirgan, ularning yeri-suvi, ot-ulovi va bori-bisotidan mahrum etgan edi.

Yer-suv islohoti 1929-yilda o'tkazilgan Qoraqalpog'istonda 300 dan ortiq yarim zamindor yer egalari xo'jaliklari musodara qilindi. 5000 dan ortiq boylarning yerlari tortib olindi. Xorazm okrugida 458 xo'jalik, Farg'ona okrugida 1541 xo'jalik tugatildi. Jami bo'lib butun O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida 4801 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo'jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shildi. U yerlar bilan birga otulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi.

Samarqand viloyati bo'yicha bu masalada tadqiqot olib borgan A. Bodirovning ma'lumotiga ko'ra, bolsheviklar partiyasi va sovet hokimiyatining kollektivlashtirishni tezlashtirish haqidagi ko'rsatmasi boshqa joylarda bo'lganidek Samarqand viloyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'rta hol dehqonlarga nisbatan ashaddiy quloq qilish siyosati ishlatildi. Aslida boylar va quloqlar oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki yillarda va XX asr 20-yillarining agrar islohotlari jarayonida tugatilgan edi. Quloqlarni belgilashda ular ijtimoiy jihatdan emas, ko'p hollarda xo'jaliklarning ahvoriga qarab baholandi. Natijada quloq toifasiga dastlab islohotlar jarayonida olingan yerda o'z mehnati bilan xo'jaliklarini o'rtacha va o'rtachadan yuqori darajaga ko'tarishga muvaffaq bo'lgan dehqonlarni ham kiritish hollari yuz berdi.

Viloyatda qishloq xo'jaligini jamoalashtirishda yuqori foizlar ketidan quvib, jamoalashtirishni 1931 yilning oxirigacha tamomlash belgilandi. Holbuki O'zbekistonda jamoalashtirish 1933 yilgacha davom etishi kerak edi.

²⁹ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.353.

Samarqand viloyatida hokimiyat organlari tomonidan jamoalashtirishni tezroq tamomlash maqsadida o'rta hol, hattoki kambag'al dehqonlarni ham quloq qilish, saylov hukuqidan mahrum etish, qamash hollari ro'y ber di. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

Sovetlarning 1931 yilda o'tkazgan operatsiyasi natijasida Samarqand viloyati dehqon xo'jaliklaridan 700 tasi (3680 jon) quloq qilinib surgun qilingan bo'lsa, 1931-1932 yillarda viloyatdagi 144316 ta dehqon xo'jaligidan 1931 yilda 703 ta, 1932 yilda 1128 ta, jami 1831 ta dehqon xo'jaliklari surgun qilindi³⁰. Viloyatda boy va quloq xo'jaliklarini tugatish ishlari 1928 yilning 3 dekabridan boshlanadi. Bu paytda qishloq sovetlariga qayta saylovlar o'tkazilayotgan edi. Shunga qaramay 3 ta rayonda 14 ta xo'jalik tugatiladi.

Oqdaryo rayonida 4 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 14 ta ishchi hayvoni, 14 qoramoli, 19 tanob yeri va qishloq xo'jaligi inventarlari 8 ta kambag'al xo'jaligi va 3 ta artel ("Ararat", "Qizil o'zbek dehqoni", "Ozod birlashuv") lariga bo'lib beriladi. Ularning uy-joylari esa uchlik komissiyasining qaroriga binoan rayon ijroiya qo'mitasi ixtiyoriga o'tziladi.

Mitan rayonida 4 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 25 ta ishchi hayvoni, 23 ta qoramoli, 23 ta qo'yi, 233,5 tanob sugoriladigan va 316 tanob lalmi yer lari va qishloq xo'jaligi inventar (asbob-uskuna) lari tortib olinib, 33 ta xususiy (yakka hol) kambag'al xo'jaliklar va 5 ta artellarga bo'lib beriladi³¹.

Payariq rayonida 6 ta quloq xo'jaligi tugatilib, ularning 41 ta ishchi hayvoni, 41 ta qora moli, 203 tanob lalmi yeri, 6,5 tanob sugoriladigan yeri,

³⁰ Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозогистон сургунидаги юртдошлар қисмати. -Тошкент: Шарқ, 2009. -Б. 59.

³¹ А. Бадилов. Самарқанд вилоятида совет ҳокимиятининг қулоқлаштириш сиёсати // “Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари” мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси. – Самарқанд. 2016.

4,5 tanob uzumzor-bog'lari va qishloq xo'jaligi inventarlari 46 ta kambag'al xo'jaliklar va 2 ta artelga bo'lib beriladi³².

Yoppasiga jamoalashtirish va u bilan birga quloqlashtirishda dehqonlarni saylov huquqidan mahrum qilish siyosati keng qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bu davrda dehqonlarni saylash va saylanish huquqidan mahrum qilish o'ziga xos kompaniyaga aylanib ketgan edi. Saylov huquqidan mahrum qilish va ularni ro'yxatlarini tuzish, kolxozlarga kimlarni qabul qilish kerag-u, kimlarni kolxozlarga kiritmaslik kerakligini aniqlash orqali quloqqa tortish va surgun qilish amalga oshirilgan. Viloyatda jamoalashtirishni tezroq tugatish uchun o'rta hol, hatto kambag'al dehqonlarni ham quloq qilish, saylov huquqidan mahrum qilish, qamash hollari yuz ber di.

O'sha vaqtda O'zbekistan SSR ning poytaxti Samarqand shahrida 1929 yilda yoshi 18 yoshdan o'tgan 86981 saylovchining 8772 nafari (11.2 foizi) saylov huquqidan mahrum qilingan. Ulardan 471 kishi tadbirkor, 419 kishi mehnatsiz daromad hisobiga yashayotgan deb topilgan. Huquqdan mahrum qilinganlarning 621 nafari imomlar, 4464 nafari savdogarlar, 150 nafari sobiq mirshablar va amir amaldorlari bo'lgan³³. Yana 177 kishining saylov huquqidan mahrum qilingani haqidagi bir ro'yxat tekshirilganda 34 nafar batrak ham "boy"lar qatori saylov huquqidan mahrum qilingani aniqlanadi.

Mamlakatda yer -suv islohotini amalga oshirish ishlari bilan viloyat, okrug va tumanlar yer komissiyalari shug'ullandilar. Ularga yordam berish us'hun qishloqlarda yordamchi komissiyalar tuzildi.

O'zbekistonda yer-suv islohatini o'tkazish paytida bir qator adolatsizliklarga ham yo'l qo'yildi:

Birinchidan, quloq va boy xo'jaliklar sifatida yo'q qilib yuborilgan xo'jaliklarning kattagina qismini o'rta hol .o'z mehnati bilan kun ko'radigan

³² Shu maqola.,

³³ Shu maqola.,

dehqonlar tashkil etar edi. Ularning aksariyatiga sho'rolarning o'zi yer taqsimlab berib, keyin ularni quloqlarga aylantirdi.

Ikkinchidan, sovet va kompartiya idoralarida rahbarlik lavozimlarida o'tirganlarning ko'pchiligi nazariy-g'oyaviy va siyosiy jihatdan pishib etilmagan shaxslar edi. Ularning ko'pchiligida xo'jalik-tashkilotchilik qobiliyati yo'q edi. Ana shuning oqibatida 20-yillarda davlatga kattagina foyda keltirib turgan shirkat xo'jaliklari yo'q qilib yuborildi, ularni jamlalashtirish siqib chiqardi. 1924-yilda 912 shirkat 18 tuman uyushmasiga birlashgan edi. Ularda 233,5 ming kishi xizmat qilgan. Shundan 87 foiz dehqonlar paxtachilik shirkatlariga a'zo bo'lib kirgan edilar. Qolgan qismi esa uzumchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va boshqa sohalar bilan shug'ullanganlar³⁴.

1926 yilda 1-iyulga kelganda Uniwersal qishloq xo'jalik kooperatsiyasida 369 ming, 1927 yil oktyabrda – 472 ming a'zo bor edi. 1927-1928 yillarda undan 450 ming xo'jalikni birlashtirgan "O'zpaxtasoyuz", "Kolxozsoyuz", "Jivotnosoyuz" va boshqalar ajralib chiqqan³⁵.

Shirkatlarga qishloq aholisining barchasi a'zo bo'lishga harakat qilardi. Buning sababi shundaki, ular qishloq xo'jalik shirkatlari orqali o'zlariga qulay ravishda mahsulotlarini sotar, davlatdan qishloq xo'jalik asbob-uskunalari, agrotexnik .zoovetyer inariya yordami va qarz olar edilar. Shirkatlar qishloq aholisining keng qatlamlarini birlashtirib, umumiy manfaaat asosida davlatmand va kambag'al dehqonlarning hamkorligini yaratishda muhim vosita bo'lgan edi. Lekin sovet shirkatlar faoliyatiga kishan solib ularni, yuqorida ta'kidlagani kabi jamoa xo'jaliklariga birlashtirib yubordi.

Sovet rahbarlarining g'oyaviy-siyosiy, nazariy saviyasi yana shunda o'z ifodasini ko'rsatdiki, ular Turkistondek o'lkada oktyabr to'ntarishi

³⁴ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.354.

³⁵ O'sh asar...., – B.354.

amalgam oshirilgan dastbalki kunlardan boshlaboq *kommuna xo'jaliklarini* tuzishga kirishdilar. Turkiston o'lkasida eng yirik kommuna xo'jaligi "Intyer natsional" bo'lib, u 1918 yil 25 iyulda tashkil etilgan edi. 1 noyabrdan uning 152 bo'limi faoliyat ko'rsata boshladi. Ularga 8.818 050 tiyin ajratildi. Kommuna xo'jaligining ishlab chiqarish vositalirga bo'lgan eg'tiyoji 40.244 ming so'm va qo'shimcha ravishda bog'dorchilik asbobliriga bo'lgan ehtiyoji 50.000 ming so'mni tashkil etgan³⁶.

Kommunalarga sarflangan xarajatlar hayotda o'zini oqlamadi. Ular xalq manfaati yo'lda mahsulot etishtirishni ko'paytirish u yoqda tursin, hatto o'zlarini ham boqa olmadilar.

Kommunalarga sarflangan xarajatlar hayotda o'zini oqlamadi. Ular xalq manfaati yo'lida mahsulot yetishtirishni ko'paytirish u yoqda tursin, hatto o'zlarini ham boqa olmadilar. Xullas, kommunalar o'lka sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmasligini hayotning o'zi isbot qildi. Shu munosabat bilan 1920-yil mart oyida bo'lib o'tgan paxtakor - dehqon koopyer ativlarining II qurultoyida Turkkomissiya a'zosi Ya. Rudzutak: "Yerlarni mehnatkash egalari haydalib, tekinxo'r kommunalar o'matildiki, natijada ular mehnatkash aholini amalda taladilar, chorvalarini va xalq pullarini yeb bitirdilar", deb tan olgan edi.

Uchinchidan, Sho'ro va kompartiia rahbarlari tub yerli xalqning ming-ming yillar davomida shakllanib qaror topgan milliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan hisoblashmadilar va nazar-pisand qilmadilar. Sho'rolarning yer-suv islohotini qabul qilmaslik hollari ko'p joylarda qayd etilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish sobiq ittifoqda bo'lgani singari 1927-yil 2-19-dekabrda bo'lib o'tgan VKP(b) XV qurultoyidan so'ng rasmiy tus oldi. Ammo Oktabr Harbiy to'ntarishidan so'ng dastlabki jamoa xo'jaliklari vujudga kela boshlagan edi. 1921-yilning

³⁶ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.354.

boshlarida faqat Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 8743 xo‘jalikni birlashtirgan 275 jamoa xo‘jaligi tuzilgan edi. Bu davrda ana shu viloyatlarda 74 ta davlat xo‘jaliklari - ‘sovxozlar ham tashkil topgan edi. Yer -suv islohoti yillariga kelganda esa respublikadagi jamoa xo‘jaliklarining soni 522 taga yetdi³⁷.

Fayzulla Xo‘jayev ma’lumotlarini e’tiborga oladigan bo‘lsak, agar 1925-1926-yillarda 410 jamoa xo‘jaligi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1926-27-yillarda ulaming soni 832 taga yetgan³⁸.

Butun sobiq Ittifoqda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ommaviy jamoalashtirishni amalga oshirishda V.Lenin bilan I.Stalinning «dono ko‘rsatmalari» asosida quloqlami sinf sifatida yoppasiga tugatish yo‘li tutildi. Jumladan, Lenin bunday degan edi: «Hech qanday shubha bolishi mumkin emas. Quloqlar Sovet hokimiyatining ashaddiy dushmanidir... Aslo yarashib bo‘lmaydi. Shu sababli quloqlarga qarshi jangni biz oxirgi, keskin jang deb ataymiz.. Quloqlar, pomeshchiklar, podshohlar, poplar... eng vahshiy, eng qo‘pol, eng yirtqich ekspluatatorlardir. Pomeshchik, kapitalistlarga qaraganda quloqlar ko‘p. Shunday bo‘lsa-da, quloqlar xalqning ozchiligini tashkil qiladi. Bu qonxo‘rlar urush vaqtida xalqning muhtojligidan foydalanib boyidilar, g‘alla va boshqa mahsulotlarning narxini oshirib, ming va yuz minglab pul to‘pladilar. Bu o‘rgimchaklar urush orasida xonavayron bolgan dehqonlar, och qolgan ishchilar hisobiga semirdilar. Bu zuluklar mehnatkashlaming qonini ichib, shahar va fabrikalarda ishchilar qancha ko‘p och qolsa, shuncha ko‘p boyidilar. Bu zolimlar pomeshchik yerlarini o‘z qo‘llariga oldilar va olmoqdalar, ular kambag‘al dehqonlami yana va yana tutqin qilmoqdalar.

Jami bo‘lib O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan yer -suv islohati natijasida 4801 ta o‘jalik quloq xo‘jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo‘jalikning ortiqcha

³⁷ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: Эволюция социального положения. 1917—1937 гг. — Т.: Фан, 71-бет.

³⁸ Хўжаев Файзулло. Танланган асарлар. 2-жилд. — Тошкент: Фан, 1978, 256-бет.

yer lari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shildi. Yerlar bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi³⁹.

Xullas, O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublika qishloq aholisining tarkibida bir qator jiddiy o'zgarishlar bo'ldi, Kambag'al dehqonlar kamayib o'rtahol dehqonlar salmog'i ortdi. Jumladan yer -suv islohotiga qadar kambag'al dehqonlar guruhi barcha dehqonlarning 76 foiziga teng edi. Yer-suv islohotidan keyin esa, ularning salmog'i 30 foizga qisqardi va aksincha o'rtahol dehqonlarning salmog'i 17 foizdan 52 foizga ortdi.

O'zbekistonda yer-suv islohatini o'tkazish paytida bir qator adolatsizliklarga ham yo'l qo'yildi. Quloq va boy xo'jaliklar sifatida yo'q qilib yuborilgan xo'jaliklarning kattagina qismini o'rta hol o'z mehnati bilan kun ko'radigan dehqonlar tashkil etar edi. Ularning aksariyatiga sho'rolarning o'zi yer taqsimlab berib, keyin ularni quloqlarga aylantirdi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, quloq qilingan dehqonlarning ko'pchilik qismi jinoyatchi emas edi. Ular kolxozga kirishni xoxlamaganligi, haddan ortiq soliqlarni to'lash uchun mablag'i yo'qligi va shunchaki ijtimoiy kelib chiqishlari uchun jazolangan edi. Aslida esa badavlat bo'lmagan o'rta hol dehqon, hunarmand, mayda tadbirkorlar, dindorlar quloq deb atalib mulklari musodara qilinib, uchlik komissiyasining qarori bilan kamoq jazosiga hukm qilingan yoki bo'lmasa o'zlari yashab turgan qishloq va makonlaridan boshqa hududlarga ko'chirib yuborilgan. Bu davrda o'ziga to'q dehqonlar ham quloq deb hisoblanib, katta miqdorda soliq to'lashga majbur etilgan. Oqibatda dehqonlar quloq bo'lishdan cho'chib, o'z xo'jaliklaridagi ishlaridan voz kechib, uni tashlab qo'ygan.

Bu esa mamlakatda oziq - ovqat mahsulotlarining etishmasligiga olib kelgan. SSSR da bo'lgani singari O'zbekiston SSR da 1933 yilda ocharchilik

³⁹ Jo'rayev N., Karimov SH. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.354.

boshlangan. Buning oqibatida yuz minglab odamlar ochlikdan qirilib ketgan. Milliy kadrlarimizning nohaqdan qoralanib, rahbarlik lavozimlaridan olib tashlanishiga yoki bo‘lmasa arziyas aybi uchun qamoqqa hukm qilinishiga olib kelingan.

2.3. Sugʻorish tizimi borasida amalga oshirilgan siyosat.

Bu davrda mamlakatda irrigatsiyani qayta tiklash, sugʻorish tarmoqlarini taʼmirlash muammolari oʻta qiyinchilik bilan hal qilinayotgan edi. Hokimiyat organlari suv xoʻjaligini tiklash ishlariga keng dehqonlar ommasini majburan jalb qilishga asosiy eʼtibor ber dilar. Bu borada 1922 yil 1 avgustda qabul qilingan “Suv toʻgʻrisidagi qonun” muhim ahamiyatga ega boʻldi⁴⁰. Bu qonun sugʻorish tizimini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Hokimiyat organlari suv xoʻjaligi ishlariga dehqonlar ommasini majburiy ravishda jalb qilishga, inson zahiralari impyeriyacha tarzda ekspluatatsiya qilishga asosiy eʼtiborni qaratdi. 1921 yil 11 mayda Turkiston Avtonom respublikasi XKK Moskavaning talabi bilan oʻlkaning irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish toʻgʻrisida dekret qabul qildi⁴¹. Ayni vaqtda Yangi iqtisodiy siyosat davri islohatlari mantigʻiga zid oʻlaroq, to 1923 yilga qadar dehqonlar zimmasida mehnat va ot-ulov majburiyati saqlanib qoldi, keyin u “natura majburiyati” deb qayta nomlandi. Dehqonlar 1921 yilda bu majburiyat hisobiga irrigatsiya tizimlarida 2 million kishi kunidan ortiq tiklash ishlarini bajardilar, bu pul bilan hisoblaganda 2.390 ming soʻmni tashkil etardi⁴².

Irrigatsiyani tiklash, sugʻorish tarmoqlarini taʼmirlash masalalarida eski iqtisodiyotga xos majbur qilish tamoyillari yaqqol oʻz ifodasini tadi.

⁴⁰ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. //Коллектив авт. – Т.: Шарк, 2000. – С. 450.

⁴¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Toshkent, 2000. –В.181.

⁴² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Toshkent, 2000. –В.181.

Masalan, o'lkada keng irrigatsiya dasturini amalga oshirish haqida balandparvoz va'dalar berilganiga qaramasdan, markaz real hayotda bu dasturni ta'minlashga mablag' ajratishni o'z zimmasidan soqit qilishga intildi. Chunonchi, TASSR dagi irrigatsiya ishlariga davlat ajratgan mablag' 1921 yilda 351,9 ming rublni, 1922 yilda esa 400 ming rublni tashkil etdi⁴³. Bundan kulgili darajadagi mablag' arziyas ehtiyojlarni ham qondira olmasdi.

Keyinchalik suvdan foydalanish tizimini ta'mirlash va tartibga solish sohasidagi asosiy ishlarni faqat aholining kuchi bilangina amalga oshirib bo'lmadi. Davlat buni his qilgan holda irrigatsiya ishlariga byudjetdan tobora ko'proq mablag' ajarata boshladi. 1923 yilga kelib bu mablag'lar 5.567 ming, 1924 yilda esa 6.260 ming olin so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga dehqonlarning bepul mehnatidan samarali foydalanishga qaratilgan yo'l saqlanib qoldi. 1923 yilda qishloq ahli natura majburiyati hisobiga qariyb 3,6 mln. Kishi kuni ishlab berdi, uning umumiy miqdori 3,8 mln. so'mdan ortiq edi⁴⁴.

Yer-suv islohoti davrida "Qo'shchi" ittifoqlarining birlamchi vazifalaridan biri - **meliorativ shirkatlarni** rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Turkiston ASSRda meliorativ shirkatlari 1923 yildan tashkil qilina boshlangan bo'lib, lekin ularning soni oz miqdorda edi. 1924 yilda 9 ta meliorativ shirkatlari tashkil qilingan bo'lib, ulardan 2 tasi Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatgan.

1925 yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun O'zbekiston suv xo'jaligi tomonidan meliorativ ishlar uchun 200 ming rubl ajratilib, ular sug'orish sistemasini rivojlantirib borish uchun ishlatilgan. "Qo'shchi"

⁴³ Тарих шохидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши // Масъул муҳаррир: Д. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2001. - В. 244.

⁴⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қисм. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тoshkent, 2000. –В.181.

ittifoqining ishtirokida 1925 yil oxirigacha Respublikada 52 ta meliorativ shirkatlar tuzilgan bo'lsa, 1926 yilning 1mayiga kelib 118 ta meliorativ shirkatlar faoliyat olib borgan. Shu yilning 15 iyuliga kelib faqatgina Samarqand viloyatida 29 ta meliorativ shirkatlar tuzilib, ularga 10 mingta dehqon xo'jaliklari birlashgan. Meliorativ shirkatlarning uездlar bo'yicha bo'linishi Samarqand uездida -18 ta, Xo'jandda-5 ta, Jizzaxda-1 ta, Kattaqo'rg'onda-1 ta, O'ratepada-1 ta bo'lgan⁴⁵.

Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlovchi asosiy manba Zarafshon vohasi bo'lgan. O'rta Zarafshon daryosining asosiy iste'molchilari Samarqand, Buxoro, Zarafshon okruglari bo'lib, 1926 - 1927 yillarda 165 ta har xil kattalikdagi ariqlar shu daryodan suv olgan. Bu ariqlarning atrofidagi sug'oriladigan yerlar maydoni 100 gektardan 80 ming gektargacha bo'lgan.

Bu inshootlarning ta'mirlanishi katta kuch va xarajatlarni talab etgan, suv chiqarishning boshqarilishi qiyinligi, zamonaviy mukammallashtirilgan regulyator yo'qligi, suv umumiy massasining rayonlarga bo'lib berilishida qiyinchilik tug'dirib, yer maydonlarining katta qismini qurib borishiga olib kelgan.

Mirzaariq magistral kanali Zarafshondan boshlanib 20 kub metr suv hajmiga ega bo'lgan. Mirza ariq Bulung'urga quyilgan va u yer da asosan sholi ekilgan. Magistral Payarig'i (hozirgi Payariq) Bulung'urdan boshlanib, Mirzoariqning davomi hisoblanadi va u 5 ta katta ariqqa bo'linadi.

To'qizariq bo'limi shart-sharoitiga ko'ra yuqoridagi ikkitasiga o'xshamaydi. Nomidan kelib aytish joizki, bu ariq 9 ta mustaqil

⁴⁵ O'zbekistonda yeri -suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. - Samarqand, 2013. – B.70.

kanallardan iborat. Ular suvni Oqdaryodan olgan. Bu bo'limda suv etarlicha bo'lgan. Boshqa ekinlar ekish foydasizligi uchun sholi va boshqa ziravor o'simliklar, poliz ekinlari, oz miqdorda paxta ekilib, moy beradigan o'simliklar ekilgan.

O'sha davrning eng yirik suv xo'jaligi obekti bo'lgan Zarafshon daryosidagi Ravotxo'ja to'g'oni 1916 yilda qurilib bitkazilmagan eski to'g'on ustiga qayta qurilgan. I.I.Levi loyihasi bo'yicha qurilgan Ravotxo'ja to'g'oni suvni Zarafshondan sekundiga 1350 kub metr tezlikda suv o'tkazish kuchiga ega bo'lib, 1921 yilgi kuchli toshqin vaqtida sekundiga 900 kub metrli bo'lgan suv toshqinidan 1,5 barobar kuchliroqdir. To'g'on 1927-1929 yillarda qurilgan bo'lib, uning ochilishi 1930 yilning 2 mayida bo'lib o'tgan. U bir to'g'on va ikki regulyatordan iborat bo'lib ular daryoning ikkala qirg'og'i bo'ylab magistral kanallarni suv bilan ta'minlagan⁴⁶. Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer larning kattagina qismi shu to'g'on yordamida sug'orilib, suv taqsimlanishi idora qilingan. Ravotxo'ja suv olish inshooti xizmatidan foydalangan rayonlar o'zining asosiy o'rnini va vodiya yaqinligi bilan bu suvlarning eng asosiy iste'molchilari xisoblanadi.

1926 yilda mazkur rayonlar vodiyni ekin ekiladigan yer maydonlarining 34,5 % ga ega bo'lib, Zarafshon daryosining 42,7 % umumiy hajmdagi oqar suvlaridan foydalangan. Katta miqdordagi suvni vodiyni yuqori qismida sarflanishi Buxoro vohasiga suv taqsimlashni chegaralab qo'ygan. Shuning uchun bu yerda 1928 yilda sug'orishga mo'ljallangan 73143 gektar yerdan faqatgina 48031 gektar yer yoki 70 % yerlar ishlatilgan. Zarafshon daryosini sug'orish sistemasining ekspluatasion xarajatlari uncha katta bo'lmagan. 1925/1926 yillarda ular bir yarim million rublni yoki o'rta

⁴⁶ O'zbekistonda yeri -suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. - Samarqand, 2013. – B.60-65.

hisobda har bir xo'jalikka 7 rubl 49 tiyin, 1 gektar yerga esa 4 rubl 22 tiyin to'g'ri kelgan.

1926 yilda amalga oshirilgan yirik ishlar qatoriga 1925 yil oktyabrida qaytadan yo'lga qo'yilgan Xo'jand uezdining Nov rayonidagi Qurqat kanali ham kiradi. Kanalning bosh qismi qayta qurilib, unga regulyator moslamalari qurildi va tog' cho'qqisidan o'tadigan 1017 metrli tunnel' qurildi. Qurqat kanalini qayta ta'mirlash uchun olib borilgan asosiy ishlar 1926 yilning 1 mayida tugallandi. Bu vaqtga kelib Samarqand suv xo'jaligi tomonidan Yangi yer larni o'zlashtirish va ekin ekiladigan dalalarga suvni o'z vaqtida etkazish uchun 1920330 rubl sarflangan bo'lib, shundan 285 ming rubl Qurqat kanali uchun ajratilgan.

1926 yili Samarqand suv okrugi bo'yicha Qoradaryo suv taqsimoti ostki to'g'oni qurib bitkazildi, Yangiariq, Qoratepa va Toshtepa soylari kesuvida akveduk (osma quvur) lar qurish ishlari olib borildi.

Davlat tomonidan 7000 rubl 10000 gektar yangi yerlarni loyihalash va tadqiqot ishlari uchun ajratildi. Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan Tollig'ulon suv dambasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu inshoot 15 ming gektar yerni sug'orish kerak bo'lib, Samarqanddan 25-40 km uzoqlikda joylashgan Polvon, Oq Sharshar, Sabaloq, Mitan, Qora, Tuyatortar, Oq ko'l, To'g'iz, Qoraqat kanallarida beton suv chiqarish tarmog'i qurish rejalashtirilgan. Umumiy hajmda ular 6 ming gektar yerni sug'orish kerak edi. Mazkur kanallarda qurilish ishlari uchun 26840 rubl ajratilgan. Yuqorida aytib o'tilgan barcha qurilish ishlari 1920330 rublni tashkil etadi. Bu mablag'ning asosiy qismi davlat byudjeti hisobidan edi.

Suv inshootlari qurilishida hashar ishlari ham amalga oshirilgan bo'lib, 1924 yilda 800 ming rubllik, 1925 yilda tozalash va mayda ta'mirlash

ishlari bo'yicha 941388 rubllik, 1926 yilda esa 947040 rubllik ish hajmi bajarildi.

Meliorasiya jamg'armasining ajratilgan maxsus mablag'idan tashqari 1929 yilda Samarqandning 29 ta meliorativ shirkatlariga yer -suv islohotiga ajratilgan ssudalardan 90 ming rubl berilgan bo'lib, ular rejalashtirilgan Yangi yerlarni sug'orish uchun sarflangan. Viloyat suv xo'jaligi Respublika davlat byudjetidan 516 ming rubl oldi va Angor, Siyob, Yangi, Pay, Polvon kanallaridan 5000 gektar yerlar sug'oriladigan bo'ldi. 1926 yil aprelida Respublika Markaziy Komiteti buyrug'i bilan 15 ming rubl pul O'zbekiston suv xo'jaligi jamg'armasidan, 3000 rubl esa Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan Eski Tuyatortar kanalini tuzatish ishlari uchun ajratildi. Bu ishlar muvaffaqiyat bilan yakunlanib, kanal suvini o'tkazish kuchi sekundiga 4,5 kubometrغا etdi va kanal Jizzax uezdini suv bilan ta'minlay boshladi⁴⁷.

To'g'onga 7,3 mln. kub metr shag'al to'kildi va bundan tashqari 4 mln.kub metr qazuv ishlari amalga oshirildi. Qurilayotgan to'g'on balandligi 13.5 metrغا ko'tarildi, bu esa o'z navbatida 120 mln.kub metr suvni yig'ish imkonini berdi. Suv ombori loyihasini O'rta Osiyo suv ishlab chiqarish (Sazvodproiz) tashkiloti xodimlari N.G. Borodinskiy, V.N. Gladey va I.D. Lebedevlar ishlab chiqishgan. Qurilish ishlarini I.G. Burdiashvili, S.K. Kalujnyuk, Sh.Ch. Aytmetov, V.F. Shpotinlar boshqardi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand va Buxoro viloyatlarida 60 ming gektar yerni sug'orish imkonini berdi.

Samarqand viloyati irrigasiya inshootlaridan yana biri Kattaqo'rg'on suv omboridir. Kattaqo'rg'on shahri yaqindagi tabiiy suv

⁴⁷ O'zbekistonda yeri -suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2013. – B.58.

havzasida yer to'g'oni qurilishi ishlari 1940 yilning bahor va yoz oylarida olib borilib paxta yig'im-terimigacha davom etdi. Bu qurilishda Samarqand viloyatining 19 rayoni, Buxoro viloyatining 21 rayoni mehnatkashlari ishtirok etishib har kuni o'rtacha 14 ming kishi, ba'zan esa 106 minggacha ishchi qatnashdi⁴⁸.

1929-yillarning oxirlariga kelib O'zbekistonda Sho'rolar va Kompartiya zo'rlik yo'li bilan jamoalashtirishdan iborat siyosatni nihoyasiga yetkazdi. Bu yo'lning bosh maqsadi SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlashdan iborat edi. SSSR paxta mustaqilligi uchun kurash ixtisoslashtirish bahonasida O'zbekistonda qaror toptirilgan paxta yakkahokimligining asosiy sababidir. Sho'rolar hukumati va Kompartiya O'zbekistonda "SSSR paxta mustaqilligi uchun kurash - o'zbek paxtakorlarining Vatan oldidagi baynalmilal va iftixor burchi!", "Oq oltin - milliy boyligimiz!" kabi shiorlar bilan butun kuch hamda vositalarni paxta yetishtirishni rivojlantirishga safarbar etdi, bu yo'lda moddiy va texnika resurslarini ayamadi, mehnatkash ommaning tinkamadorini quritdi.

Sho'ro hukumati asosiy diqqat-e'tiborini O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratar ekan, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, texnika vositalarini shu yerning o'zida ishlab chiqarish to'g'risida bosh qotirmadi. Chunki bu Rossiyaning milliy mustamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi. Qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan traktorlar va boshqa mexanizmlar sobiq Ittifoq markazida barpo etilgan zavodlarda ishlab chiqarildi va O'zbekistonga keltirildi. Shu munosabat bilan traktor va mexanizmlarni ta'mirlashga ehtiyoj tug'ildi va mashinatraktor stansiyalari (MTS) tashkil etildi. 1929-yilda bittagina MTS tashkil etilgan bo'lsa, 1932-yilda ularning soni 78 taga va 1937-yilda esa 163 taga

⁴⁸ O'zbekistonda yeri -suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. - Samarqand, 2013.- B.60.

yetdi. Shu yillarda jamoa xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi MTS lardagi traktorlar soni ham muttasil oshib bordi. 1929-yilda jamoa xo‘jaliklarida 35 traktor xizmat qilgan bo‘lsa, 1930-yilda ulaming soni 369 taga va 1937-yilda 21550 taga etdi⁴⁹. 1937-1940- yillarda respublikada traktorlar soni 18 mingdan 23 mingtagacha ko‘paydi.

Paxtachilik taraqqiyotida suv muammosining o‘rni alohida, albatta. O‘zbekiston 1932-yildayoq umumittifoq ko‘rsatkichining 62 foiz paxtasini yetkazib berayotgan bo‘lsa-da, Markaz bundan qanoat hosil qilmadi. U paxta yetishtirishni yanada ko‘paytirish maqsadlarini ko‘zlab sun‘iy sug‘orish inshootlarini qurish masalasini O‘zbekiston sho‘ro hukumati va Kompartiya oldiga ko‘ndalang vazifa qilib qo‘ydi. O‘sha davrda bunday inshootlarni barpo etadigan qudratli texnika vositalari yo‘q edi, hamma ishni qo‘lda, belkurak, ketmon, zambil va g‘altak aravalar yordamida bajarish zarur edi.

Butun O‘zbekiston fuqarolari 1939-yil 1-avgustda ana shunday ulkan inshootlardan biri - ***Katta Farg‘ona kanalini*** qurishga kirishdilar. Uzunligi 270 km bo‘lgan mazkur kanalni o‘zbek xalqi katta jasorat va mardlik ko‘rsatib, og‘ir sharoitlarda 45 kunda qurib bitkazdilar. Natijada 60 ming gektar yangi yerlar o‘zlashtirilib, qishloq xo‘jalik oboratiga kiritildi, 500 ming gektar yeming sug‘orish sharoiti yaxshilandi. Shuningdek, Shimoliy va Janubiy Farg‘ona, Toshkent kanallari, Kampirravot to‘g‘oni ham qo‘l mehnati evaziga og‘ir mashaqqatlar bilan qurib ishga tushirildi. O‘zbekistonda eng katta sun‘iy dengiz Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishi ham boshlab yuborildi. 1924-1928-yillarda davlat irrigatsiya ishlariga 61,4 million so‘m kapital mablag* sarfladi. Bu ko‘rsatkich 1929-1932-yillarda 234,9 million so‘mni tashkil etdi⁵⁰.

⁴⁹ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 369.

⁵⁰ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 370.

1939-yilda qurib bitkazilgan Katta Farg'ona kanali qurilishining o'ziga davlat 20 million so'm kapital mablag' ajratdi. Natijada faqat 1937-1940-yillardagina O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydonlari 260 ming gektarga ko'paydi. Bu shunga olib keldiki, 1939-yilga kelib O'zbekiston davlatga 1 million 583 ming tonna paxta yetkazib berdi. Bu 1924- yilgi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda 673 foizga teng edi. Ammo inson hayoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni yetkazib beruvchi xalq xo'jaligining boshqa muhim sohalariga e'tibor mutlaqo pasayib ketdi. Jumladan, donchilik 78 foizga, bog'dorchilik 1,5 baravarga, uzumchilik 1,6 baravarga kamaydi⁵¹.

Katta Farg'ona kanali qurilishi davom etayotgan bir vaqtda Samarqand viloyat mehnatkashlari ham o'n kun ichida uzunligi 43 km bo'lgan Zarafshon kanali qurilishi ishlarini amalga oshirdi.

1925 yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun O'zbekiston suv xo'jaligi tomonidan meliorativ ishlar uchun 200 ming rubl ajratilib, ular sug'orish sistemasini rivojlantirib borish uchun ishlatilgan. "Qo'shchi" ittifoqining ishtirokida 1925 yil oxirigacha Respublikada 52 ta meliorativ shirkatlar tuzilgan bo'lsa, 1926 yilning 1-mayiga kelib 118 ta meliorativ shirkatlar faoliyat olib borgan. Shu yilning 15 iyuliga kelib faqatgina Samarqand viloyatida 29 ta meliorativ shirkatlar tuzilib, ularga 10 mingta dehqon xo'jaliklari birlashgan. Meliorativ shirkatlarning uездlar bo'yicha bo'linishi Samarqand uездida -18 ta, Xo'jandda-5 ta, Jizzaxda-1 ta, Kattaqo'rg'onda-1 ta, O'ratepada-1 ta bo'lgan⁵².

O'zbekiston dehqonlarining tekin mehnati irrigatsiya tarmoqlarini ta'mirlash masalasini qisman hal etishga ko'maklashdi. Biroq davlat mablag'ining etishmasligi, qurilish materiallari va muhandislik-texnik

⁵¹ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 370.

⁵²O'zbekistonda yeri-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. - Samarqand, 2013.- 65-70.

xodimlarning yo‘qligi sharoitida faqat aholining kuchi bilan ta’mlash va suvdan foydalanishni tartibga solish borasidagi katta ishlarni amalga oshirib bo‘lmasdi. Shu sababli, sug‘oriladigan yerlarning qisqarib borish tamoyili saqlanib qoldi.

2.4. XX-asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda olib borilgan yer -suv islohatlarining yakuni va uning oqibatlari

Shunday qilib, 1920 yillarning boshlarida hamda 1925-29-yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan yer-suv islohotlari o‘zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan og‘ir salbiy oqibatlari bilan kechdi. Mazkur islohotlar joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 3 bosqichda amalga oshirilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek,

- birinchi bosqich, 1925-1926-yillarda Farg‘ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo‘ldi.
- Ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va o‘rta Zarafshon okruglari) da yer-suv islohoti o‘tkazildi.
- Uchinchi bosqich, 1928-1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida islohot amalga oshirildi.

Ikkinchi bobda ta’kidlanganidek, mustabid sovet tuzumining yer-suv islohatidan birinchi vazifa sifatida ko‘zlangan maqsad - sotsialistik yo‘nalishda bo‘lib, u “mehnat bilan shug‘ullanmaydigan boy-quloq xo‘jaliklarni” ni tugatish va ko‘chmanchi aholini o‘troq holatga o‘tkazishdan iborat edi.

«Quloq» xo‘jaliklarini tugatish ishlari ostida hatto o‘rtahol va kambag‘al xo‘jaliklar ham musodara qilinar edi. Umuman, sovet qarorlarida quloq xo‘jaligini besh xil belgi bo‘yicha aniqlash ko‘rsatilgan: 1. Surunkali yollanma mehnatdan foydalanuvchilar; 2. Tegirmoni, moyjuvozi va shunga o‘xshash ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lganlar; 3. Surunkali ravishda qishloq xo‘jaligi vositalarini ijaraga ber ayotganlar; 4. Surunkali yoki

mavsumiy ravishda mehnat qurollari, ish hayvonlari va binolarni ijaraga berayotganlar; 5. Sudxo'rlik, sadogarlik, vositachilik bilan shug'ullanib mehnatsiz daromad topayotganlar⁵³.

R.Shamsutdinov ta'kidlaganidek, shu o'rinda «quloq»lar, quloqlashtirish" deb nomlangan siyosat (rus. kulachestvo - mushtumzo'r) - mustabid sovet rejimining badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati (1929-1933) edi. O'rta Osiyoda yer-suv islohoti o'tkazilishi jarayonida qishloqlardagi badavlat xonadonlarni «mushtumzo'r» («quloq») sifatida badarg'a qilish boshlangan. Bu islohot davridayoq 28 ming yirik va o'rta mulkdorlarning xo'jaliklari tugatilgan va ularning yerlari musodara qilingan edi⁵⁴.

Natijada O'zbekistonda birgina 1930-yil 2648 ta xo'jaliklar tugatildi. Bu hol dehqonlarda xavotirlik o'yg'otdi. Ko'pchilik odamlar o'z xo'jaliklarini tashlab qochdilar, chor-valarini so'yib sotib yubordilar⁵⁵. Jadal jamoalashtirish, o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik siyosati o'tkazish respublikadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Ayni vaqtda "quloq"larni siyosiy jihatdan ham cheklash, ya'ni ularni saylanish va saylash huquqidan mahrum qilish siyosati ham olib borilgan. "Quloq" dehqonlar bilan bir qatorda o'rta hol va kambag'al dehqonlar ham saylov huquqidan mahrum qilindi. Tadqiqotlarda qayd qilinishicha, Andijon okrugi Kosonsoy tumanida saylov huquqidan mahrum etilgan 1770 kishining 394 tasi quloq deb hisoblangan o'rta hollar, 536 nafari esa dindor deb hisoblangan dehqonlar bo'lgan⁵⁶.

⁵³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. – Toshkent: Sharq, 2003. – Б.26.

⁵⁴ Shamsutdinov R. Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – В. 468.

⁵⁵ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Toshkent: Sharq, 2001. – В.73.

⁵⁶ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937. – Ташкент, 1992. – В. 132.

Quloq va o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik qilish respublikadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Dehqonlarning noroziligi kuchayib, Farg'ona va Zarafshon vodiylari, boshqa hududlarda ommaviy norozilik namoyishlari, sovet tuzumiga qarshi isyonlar va qurolli chiqishlar yuz berdi. Ba'zi isyonlar qurolli qo'zg'olon darajasiga ko'tarilgan. Faqat Qashqadaryo okrugida 1930-yil boshlarida dehqonlarning 14 ta norozilik chiqishlari yuz berib, ularda 3700 kishi ishtirok etgan. 1930-yil mart oyida O'zSSRda 240 ta, SSSRda 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan. 1937-yilning 15-20-fevral kunlari Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Andijon, Xorazm, Surxondaryo okruglarida 18 ta chiqish bo'lib, ularda 11290 kishi qatnashgan⁵⁷.

«Pravdo Vostoka» gazetasi 1928-yil, 2-sentabr sonida quyidagi juda bir qiziq rasmiy ma'lumotni bergan edi: «Boylarning o'zboshimchalik bilan o'z yer larni tortib olish hollari sodir bo'lgan. Bunaqa hodisalar, ayniqsa Samarqand va Buxoro viloyatlarida ko'p takrorlanmoqda. ... o'z xohishlari bilan yer olishdan voz kechayotganlar ham uchrab turibdi. U yoki bu shaklda boylarning yerlarini tortib olishga yo'l qo'ygan yoki qo'l qo'ylshayotgan ba'zi qishloq va rayon ijroiya qo'mitalari xodimlriga qarshi biz qattiq choralar ko'rishimiz zarur». O'zbekistonda yer-suv islohoti o'tkazilishi davrida kompartiya va sovetlarning agrar siyosatiga qarshi norozilik harakati keng tus oldi. Natto terors'hilik keng tus olgan. Faqat 1929 yilning o'zida O'rta Osiyoda 620 ta tyer rorchilik hodisalari yuz ber gan⁵⁸.

Jami bo'lib butun O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan "yer-suv islohoti" natijasida 4801 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo'jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer

⁵⁷ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Toshkent: Sharq, 2001. –70-80 бетлар.

⁵⁸ O'sha asar.- B.61.

qo'shildi. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning yerlari bilan birga ot-ulov va asbob-uskunolari ham musodara qilingan edi.

Islahotning 2-bosqichi birinchisidan farqli o'laroq, katta yer egaligi va o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarini butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan.

Yer-suv islohoti yakunlangach ommaviy jamoalashtirish avj oldi. Sovet hukumatining jamoalashtirish siyosatiga ob'ektiv baho bergan taniqli olimi Rahima Aminova shunday degan edi: "Jamoalashtirish - ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o'rnatilishining naq o'zginasidir"⁵⁹. Kishining ishlab chiqarishdagi mehnatiga haq to'lov o'zaro tenglik asosiga qurilganidan bu siyosat o'zini oqlamadi. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik bo'lmagan joyda tashabbuslar ham so'nadi. Tashabbus, izlanish bo'lmagan joyda esa ish orqaga ketadi. Buning ustiga hayotning o'zi jamoalashtirish muammosini ko'tarib chiqmagan edi. Nazariyachilar asrlar osha shakllanib kelgan ishlab chiqarish usullariga bepisand qaradilar. Zo'ravonlik bilan o'tkazilgan siyosat ko'plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo'lgan munosabatini sovitdi.

Yoppasiga jamoalashtirish, shu asosda quloqlarni sinf sifatida tugatish va ularni jamoalashtirish hududlaridan surgun va qatag'on qilishlar asosan 1930-yilning boshlaridan boshlangan. jamoalashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada «sotsialistik musobaqa»ni avj oldirishda ayniqsa VKP(b) MQning 1930-yil 5 yanvardagi «Jamoalashtirish sur'ati va jamoa qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ham hal qiluvchi o'rin tutdi. Mazkur qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh tumanlarga bo'lindi va qaysi hudud qachon jamoalashtirishni tugallashi rejalashtirildi. O'zbekiston

⁵⁹ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 351.

uchinchi guruhga kiritildi va u jamoalashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi.

SSSR Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti 1930-yil 4-fevralda quloq xo'jaliklarni surgun qilish va joylashtirish to'g'risida maxfiy yo'riqnoma qabul qilib, uni joylarga qo'llash uchun yuboradi. 1930-yil 17-fevralda esa O'zbekiston Kompartiyasi MK «Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi⁶⁰. Markazning «tanqidiy xulosalari» asosida sovet hukumati va komfirmasi respublikada jamoalashtirishni yuqori sur'atlarda va «safariylik» asosida olib bordi. Natijada 1932-yilda butun O'zbekistondagi boy va o'rta hol hamda sovet davrida yer olgan dehqonlarning 91,7 foizi jamoalashtirildi, kollektiv va davlat xo'jaliklariga birlashtirildi.

«Quloqlar» sifatida ro'yxatga olingan badavlat xo'jaliklarning mol-mulki to'liq musodara qilinib, ularning oilalari o'zga yurtlar (Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq va h.k.) ga surgun qilingan. Shuningdek, respublikaning o'zida quloqlar uchun majburiy mehnat posyolkalari (17 ta) tashkil qilingan. Sovet hokimiyatiga qarshilik qilgan «quloqlar» esa qamoqqa olingan va otib tashlangan. «Quloqlar»ga qarshi kurash O'zSSRda kun sayin kengayib borgan. 1931-yil avgustda 3828 ta «quloq» xo'jaliklari tugatilgan, 6 ming xo'jalik «quloq oilasi» sifatida Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. 1933-yil iyulida Shimoliy Qozog'istonga 500 oila surgun qilingan⁶¹.

O'rta Osiyo respublikalaridagi majburiy mehnat ko'chkindilarining soni 1934-yil 1-yanvar holatida 29559 kishi bo'lsa, oradan bir-yil o'tgach,

⁶⁰ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Toshkent: Sharq, 2003. – Б.59.

⁶¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Toshkent: Sharq, 2003. – Б.215.

ularning soni 12039 kishiga tushib qolgan (kamayish, asosan, vafot etganlar va qochib ketganlar hisobidan).`

1933-yilda quloqlashtirish siyosati, asosan, amalga oshirib bo'lingan. Biroq 1934-1937-yillarda ham ko'plab badavlat dehqon xo'jaliklari «quloq» qilingan. Sovet rejimi qishloqda o'z hokimiyatini to'la o'rnatib, kollektivlashtirishni amalga oshirib bo'lgach, surgun qilingan «quloq» xo'jaliklariga nisbatan o'z siyosatini bir oz «yumshatgan». Masalan, SSSR MIQ 1934-yil 27-mayda «Sobiq quloqlarning grajdanlik huquqlarini tiklash tartibi to'g'risida» qaror qabul qilib, unda «quloqlar»ning saylov huquqlari tiklangan.

Ikkinchi jahon urushi davrida majburiy mehnat ko'chkindilari tarkibida katta o'zgarishlar yuz ber gan. Urushgacha va urushning dastlabki davrida «quloqlar» va ularning chaqiriq yoshidagi farzandlarini mehnat surgunidan ozod qilish boshlangan edi. Urash boshlangach, bu jarayon ham to'xtatildi. 1942-yilda SSSR hududida mehnat surgunida bo'lgan 100 ming kishi (O'SSRda 1152 kishi) - «quloqlar» harakatdagi armiya safiga chaqirilib, frontga jo'natilgan. Sovet tuzumi davrida quloqlikka tortilib, surgun qilinganlardan tirik qolganlarining erkin fuqarolik maqomini olib, o'z yurtiga qaytish jarayoni juda og'ir kechib, u taxminan 20 yildan ko'proq vaqt (1934-1956) ni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sho'rolarining IV qurultoyi arafasida, 1931 yil 15-fevralgacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda, respublikaning 45 tumanidagi jamoa xo'jaliklaridan 2648 boy «quloq» sifatida haydalgan bo'lsa, 1932-yilda 3550 «quloq» jamoa xo'jaliklaridan haydalganlar⁶². Ana shu jarayonda faqat 1930- 1933- yillardagina 5550 xo'jalik quloq qilinib qatag'onga uchradi. Ular o'z joylari makonlaridan badarg'a qilinib sobiq

⁶² Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 363.

Ittifoqning Sibir va Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston va shu kabi boshqa hududlariga badarg'a qilinadilar. Faqat 1930-yilning fevraligacha Ozarbayjon va Tojikistonga, Surxondaryo, Zarafshon, Samarqand, Toshkent okruglariga Andijon okrugidan 510 xo'jalik, 1530 kishi, Andijon tumanidan 669 xo'jalik, Zelenskiy (Asaka-muall.) tumanidan 2006 xo'jalik, Namangan tumanidan 1462 xo'jalik, jami bo'lib 4137 xo'jalik o'z yashash joyidan quloq xo'jaligi sifatida badarg'a qilingan va bu boradagi reja 100 foiz ado etilgan edi. Shundan 500 xo'jalik Ozarbayjonga ko'chirildi.

1929-1933-yillar davomida quloq sifatida otib tashlanganlar, tiriklayin ko'mib yuborilganlar, ochlikdan, qiynoqdan o'lib ketganlar birgina Kattaqo'rg'on tumanining Miyonkal orolida bir necha o'n minglab kishini tashkil etadi. Shu oroldagi Uzun mozor, Olovattepa, Kattamingtepa va boshqa xandaqlarda 50 mingdan ziyod mahbus jasadi ko'milgan⁶³.

«Xudoning marhamatini qarangki, - deydi 81 yoshli Shukur buva Nazar o'g'li (Lenin jamoa xo'jaligi faxriysi) - Zarafshon daryosi Kattaqo'rg'onga kelgach, ikkita irmoqqa bo'linadi. Mana bu o'ng tomondagisi Oqdaryo, chap tomondagisi Qoradaryo. Bu ikki daryo Xudoning in'omi bilan 30 chaqirimlardan so'ng yana birlashib, Zarafshon daryosini tashkil etadi. Ushbu ikki daryo oralig'idagi orol Miyonkal deb ataladi. Hozir shu ikki daryo oralig'idagi orolda - Lenin va Marks kolxozlari faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shu hududda - 30-yillar boshida «quloq» sifatida otib tashlangan, son-sanoqsiz begunoh bandalar ko'mib tashlangan mozor ustida ikki kolxoz tuzilgan, tag'in deng ularga dohiylar nomi berilgani uyat»⁶⁴.

Lenin nomli jamoa xo'jaligida yashovchi 88 yoshli Qosim buva Murod o'g'lining gaplariga qaraganda: «Kattaqo'rg'on, Xatirchi tomonlardan ming-minglab fiiqaro haydab kelindi. Karvonning to'rt tomoni NKVD

⁶³ «Fan va turmush» jumali, 1993-yil, 5-6-son, 28-bet.

⁶⁴ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 363.

qo'riqchilari bilan o'rab olingan. Keyin bilsak, bu kishilar asosan Farg'ona vodiysi - Andijon, Farg'ona, Namangan, qolaversa, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Surxondaryodan quloq qilingan 40 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan 40 mingdan ortiq domlalar, mullalar, eshonlar, xo'jalar, boylar, aslzodalar ekan». Miyonkal oroliga jami keltirilganlami jamoa xo'jaligi faxriysi 90 yoshli Mullanor buva Mahmud o'g'li 100 ming kishidan ortiq edi, deb taxmin qiladi. Ammo o'sha davrda mahbuslar koloniyasi boshlig'i bo'lib ishlagan Muqimjonov bu jahannam orolida 119 ming mahbus saqlanganligini aniq aytadi.

Yangiyo'l tumaniga qarashli Qovunchi qishlog'ida sodir boigan voqea ham diqqatga sazovor: "Qurollangan vakillar qurollangan militsiya xodimlari hamrohligida kechasi quloq qilinayotgan odamlaming uyiga kirib, bor bisotini - molidan tortib, puliyu kiyim-kechagi, choyshabiyu idish-tavog'igacha... tortib olishgan. Shunday hollar ro'y berganki. tortib olingan buyumlaming ro'yxati tuzilmagan. Tuman bo'yicha 500 kishi quloq qilinadi. Ulaming hammasi rayon ichki ishlar bo'linmasiga keltirilib, 8 kungacha hibsda saqlanadi. Qamalganlaming aksariyati begunoh odamlar edi"⁶⁵.

Birgina Zangiota qishlog'idan 42 xonadon quloq xo'jaligi sifatida badarg'a qilingan. Quloqlami oladigan oyliklariga qarab aniqlangan. Masalan, Zangiota qishlog'idan dehqon Abdulla Qozoqboyev 158 so'm, Ashraf Ibrohimov 238 so'm, Mulla Toshxo'jayev 214 so'm, Usmonxo'jaev 93 so'm soliq to'lagani uchun quloq deb topilganlar. Chinoz qishlog'ida 30 xonadondan 18 ot tortib olingan va xonadon egalari quloq qilingan.

1929-yil 27-dekabrda Norin tumani Katta O'lmas qishloq Sho'rosiga qarashli Shahidmozor qishlog'ida istiqomat qiluvchi Toshbekov Mo'min quloq sifatida qamoqqa olingan. Uning oilasi bisotida eskirib qolgan bitta uy, 1 ta ot, 1 ta sigir va 20 tanob yer bo'lgan, xolos. U qamoqxonada so'roq

⁶⁵ Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... - B. 365.

azobiga bardosh bera olmasdan kamerada vafot etgan⁶⁶.

O'zbekistondan faqat Ukraina va Sharqiy Sibirga surgun qilingan oilalar qariyb 60 mingni tashkil etadi.

Kimlarning quloq qilishgani haqida Kattaqo'rg'on tumanidagi sobiq Lenin nomli jamoa xo'jaligining faxriysi Mullanor buva Mahmud o'g'li quyidagicha hikoya qiladi: «- Ey, bolalarim, aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Qoraqalpog'istonda quloq qilishlar qanday kechganligini bilmadimku, lekin bu narsa Samarqand, Xatirchi, Kattaqo'rg'onlarda juda dahshatli kechgan. Hokimiyat batrak-kambag'allar qo'liga o'tib, butun huquq ularga berildi. Ular boy, yer egalari, ruhoniylarnigina emas, balki «bundayroq» ko'ringan oddiy kishini ham yomon ko'rib qolishsa, uch kishi tuzgan akt bilan quloq qilib yuboraverishgan.

- Haqiqatdan ham to'g'ri aytdingiz, - suhbatga aralashdi Ahmad buva (98 yoshli Ahmad buva Saloev ham sobiq Lenin jamoa xo'jaligining faxriysi), - esingizdami, kattaqo'rg'onlik 73 yoshli Xidir buvani quloq qilishgan edi. Xidir buva mulla edi. Bisotida bir eshak va bir sigiri bo'lgan. Oilasida 8 jon edi. O'sha sigir va eshak oilani boqardi. Novna qishlog'iga minib borib kelish uchun Ummat batrak undan eshagini so'raydi. Buva eshagini bermagani uchun batrakqo'mlik amalidan foydalanib, uch kishi qo'l qo'ydi-da, «sen quloq bo'lding», deb yuborishdi. NKVD ning rayon bo'limidan kelishib eshak, sigir, bir kigiz va o'zini olib ketishgan edi. Bechorani yomon qiynashgan. Oradan ko'p vaqt o'tmay hech so'zsiz otib tashlashgan»⁶⁷.

O'zbekistonda amalga oshirilgan yoppasiga jamoalashtirish chorvachilikka katta zarar keltiradi. 1928-1932-yillarda salkam 715 ming qoramol, salkam 160 ming ot, 49 ming tuya, 123 ming eshak va xachir, bir necha yuz ming qo'y va echkilar kamayib ketdi.

⁶⁶ O'sha asar., - B.365.

⁶⁷ SharqYulduzi» jurnali, 1992-yil, 12-son, 185-bet.

Xullas, jamoalashtirishdan iborat Sho'rolarning mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qiluvchi tadbir O'zbekiston uchun juda qimmatga tushdi.

Shunday qilib, 20-30 yillarda iqtisodiy sohada olib borilgan siyosat natijasida O'zbekiston aholisining asosiy ijtimoiy qatlamlaridan hisoblangan dehqon xo'jaliklarining yakka tartibdagi faoliyatiga chek qo'yildi. 1932 yilda O'zbekistonda jamoalashtirish siyosati 81,7 foiz dehqon xo'jaliklari va 68,1 foizi ekin maydonlari, 1937 yilning oxiriga kelib esa, 95 foiz xo'jaliklar va 99,4 foiz ekin maydonlarini qamrab oldi⁶⁸. Shu tariqa o'z yerida ishlab, mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lgan dehqonlar qatlami o'z-o'zidan mustaqil qatlam sifatida yo'q qilindi. Endi ular yangi sho'rolar sinfi hisoblanib, siyosiy va iqtisodiy yeridan mahrum bo'lgan va davlatga tobe bo'lgan – kolxozchi-dehqonlarga aylandilar.

Shunday qilib, mustabid sovet tuzusi tomonidan olib borilgan yer-suv siyosati o'zining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan quyidagi oqibatlarga olib keldi:

Birinchidan, quloqlashtirish siyosati mustabid sovet rejimining badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati bo'lib, bu islohot davridayoq 28 ming yirik va o'rta mulkdorlarning xo'jaliklari tugatilgan va ularning yer lari musodara qilingan. Ayni vaqtda "quloq"larni siyosiy jihatdan ham cheklash, ya'ni ularni saylanish va saylash huquqidan mahrum qilish siyosati ham olib borilgan. "Quloq" dehqonlar bilan bir qatorda o'rta hol va kambag'al dehqonlar ham saylov huquqidan mahrum qilingan.

Ikkinchidan, tub yerli aholining 80 foizidan ortig'i erkin mulkchilik va bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloqda yashar edi. Jamoalashtirish siyosati natijasida erkin mulkchilikning va bozor iqtisodiyoti

⁶⁸ Махкамова Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации. ... – С.35.

munosabatlarining hamma va har qanday ko'rinishlariga barham berildi. Xususiy mulkchilik batamom tugatildi. Uning o'rnida sotsialistik mulkchilik deb atalgan Yangi mulkchilik shakli joriy etildi. U ikki ko'rinishda: davlat mulkchiligi (sovxoz) xo'jaligi va jamoa mulkchiligi (kolxoz) shaklida ro'yobga chiqarildi. Aslida jamoa mulkchiligi ham davlat tasarrufida bo'ldi. Qishloq fuqorolarining mehnati ushbu davlat va jamoa mulkchiligiga majburan biriktirib qo'yildi.

Uchinchidan, jamoalashtirish siyosatining qishloqda amalga oshiriloishi natijasida sovet hukumati inson va fuqorolarning barcha huquq va erkinliklarini oyoqosti qildi. Og'ir va dahshatli mehnat ekspluatatsiyasi xotinqizlar va yosh bolalarni bir umrga mayib-majruh qildi. Xo'jaliklarda dehqonlarga oylik to'lanmas, mehnat haqi yozilardi, xolos. Arzimagan aybi (ishga chiqmaganligi, tirikchilik tashvishlari bilan shug'ullanganligi) uchun ularning tomorqa yerlari tortib olinib, katta soliqqa tortilgan.

To'rtinchidan, jamoalashtirish va quloqqa tortish siyosatidan norozi bo'lgan dehqonlar, hunarmand va dindorlar o'z yurtini tark etib muhojir bo'lib chiqib ketishga majbur bo'lganlar. Muhojirlik asosan Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi davlatlarga kambag'al va o'rtahol dehqon xo'jaliklari o'tib ketgan. Buning oqibatida ushbu ijtimoiy qatlamlar jamiyatning an'anaviy tizimidan butunlay olib tashlandi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy, ijtimoiy va demografik yo'qotishlarga olib keldi.

XULOSA

Tarix shundan guvohlik beradiki har qanday bosqinchi davlat o'zi istilo etgan hududlarni ko'roq talab, yuqori foyda olishga intilib mahalliy aholining boshiga og'ir kunlarni solgan. Shu o'rinda sovet mustamlakachiligi davrida xalqimiz boshiga tushgan og'ir musibatlarni va dard alamlarni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da otabobolarimiz qanchalik og'ir kunlarni boshidan kechirmasinlar, istibdod kishanlari qanchalik qo'llarini bog'lamasinlar baribir hayotga bo'lgan intilishni, yorug' kunlarga bo'lgan ishonchni yo'qotmaganlar.

20-yillarning o'rtalariga kelib o'zbek qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi bir oz siljishlarga yer ishildi. Sababi Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan dehqonlarga bir oz imkoniyatlarni berdi. Qishloq iqtisodiyotini yuksaltirishning ustivor omillariidan biri o'sha davrda keng miqyosli agrar islohatni avj oldirishdan iborat edi. 1921-1922 yillardagi yer islohatiga qaramasdan, o'zbek qishloqlarida hali oldingi mustamlakachilik davriga xos bo'lgan ko'pgina o'ziga xos xususiyatlar, birinchi navbatda kam yerlilik va yersizlik saqlanib qolgan edi.

O'zbekiston qishloqlarida agrotexnikaning o'ta oddiyliigi, irrigatsiya tizimining tang holatdaligi, mablag'larning kamligi yangi yerlarni jadal o'zlashtirish imkonini bermagan edi. Bularning hammasi yer masalasining keskinlashuviga olib keldi.

Qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda o'zgartirish istiqbollariga yondashish jarayonida kommunistik mafkurachilar yirik agrar jamoa korxonasi yakka dehqon xo'jaligidan yaxshiroq, degan fikrga qat'iy asoslanib ish ko'rdilar. Chunki yerdan foydalanishning jamoa tizimi markazlashgan rejalashtirishni va ko'p millionli qishloq mehnatkashlarini

boshqarishni osonlashtirar, qishloqdagi keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ishlarini butun mamlakat miqyosida tezroq amalga oshirish imkonini berardi.

Yuqoridagilar sabab bo'lib, kolxoz qurilishi sur'atlarini sun'iy ravishda avj oldirish, kolxozlarni "sotsialistik asosda mustahkamlash", ko'p sonli odamlarning qurbon bo'lishiga, ularning begunoh qoni to'kilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda respublikada faqat bir xil shakldagi kolxoz tuzumi qaror topdi. Umuman, jamoalashtirish o'zbek qishlog'i tarixiy rivojlanishining sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. U dehqonlarni asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo'rlik bilan haydab kirilgan dehqonlar barcha asosiy fuqorolik huquqlaridan va avvalo ko'chib yurish erkinligi, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar.

Jamoalashtirish va quloqqa tortish siyosatidan norozi bo'lgan dehqonlar, hunarmand va dindorlar o'z yurtini tark etib muhojir bo'lib chiqib ketishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa o'z yerida ishlab, mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lgan dehqonlar qatlami o'z-o'zidan mustaqil qatlam sifatida yo'q qilindi. Qolgan qismi esa, yangi sho'rolar sinfi hisoblanib, siyosiy va iqtisodiy erkidan mahrum bo'lgan va davlatga tobe bo'lgan – kolxozchi-dehqonlarga aylandilar.

1925-1929 yillarda yer-suv islohati o'tkazish bahonasida sovet hukumati milliy qishloqlarda yangi ijtimoiy ziddiyatlar keltirib chiqarishga erishdi. Bu islohat tufayli yer-suv ishlab chiqarishning boshqa vositalari, milliy boylarga qarashli yerlar musodara qilindi. Sovetlar bu mulklarni kambag'allarga bo'lib berib, qishloq xo'jaligidagieski yerga egalik qoldiqlariga barham bermoqchi bo'ldi. Aksariyat milliy arboblardan va mahalliy aholining hoxish istagiga zid ravishda o'tkazilgan yer-suv islohati natijasida Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon viloyatlarida 255

ming desyatnaga yaqin yer jamg'armasi hosil bo'ldi⁶⁹. Bu yerlarning 70 foizi boylardan tortib olingan bo'lib, qolgan 30 foizi esa yangi o'zlashtiriladigan yerlar, davlat mulki, vaqf, shaharliklar va boshqa qatlamlarning yer laridan iborat edi. Ayni shu yer-suv islohatini o'tkazish jarayonidanoq sovetlar o'ziga to'q va tinch o'rta hol dehqonlarni quloq qilish yo'lini boshlab ber di.

Islohatni o'tkazish jarayonida Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon viloyatlarida 2603 ta xo'jalik "quloq xo'jaligi" deb topildi. 22871 xo'jalikdan "ortiqcha" deb hisoblangan yer musodara qilinib tortib olindi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston viloyatlarida o'tkazilgan yer -suv islohati natijasida 989 ta xo'jalik "quloq xo'jaligi" deb topilib tugatildi, uning eaglari quloq qilindi. Respublika bo'yicha yer -suv islohati davomida 4801 ta xo'jalik "quloq xo'jaligi" deb topilib tugatildi, 23036 ta xo'jalikning yeri "ortiqcha yer " deb tortib olindi. Respublikaning yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shiildi. Yerlar bilan birga dehqonlarning ish hayvonlari, mehnat qurollari, asbob-uskunolari ham musodara qilindi.

Shunday qilib, mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan agrar siyosat va uning oqibatlariga qaramasdan, mehnatsevar o'zbek xalqi bilak kuchi va intellektual salohiyati bilan duch kelgan muammolarni yechishgna harakat qildi. O'z shijoati, mehnatsevarligi bilan o'zbek xalqi sovet tuzumi hukmdorlariga yoqish uchun emas balki yurtimiz obodonchiligi, uning ravnaqi hamda yorug' kunlar uchun mehnat qilib sabr-qanoat bilan turmush kechirdilar.

⁶⁹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Toshkent: Sharq, 2001. –B.58.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2009.
4. Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.). – Т., 1963.
5. Алимов И.А. Узбекское дехканство на пути к социализму. – Ташкент, 1974.
6. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937. – Ташкент, 1992.
7. Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX - первой четверти XX вв. – Самарканд, 2007.
8. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2011.
9. Ражабова Р.Ё. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (1917-1933 й.). Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
10. Собирова Д.Т., Н.Акбарова. XIX аср охири - XX аср бошларида Фарғона водийсидаги оилавий маросимларда этномаданий муносабатлар // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” / Республика илмий-амалий
11. Тарих шохидлиги ва сабоқлари чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001.
12. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. // Коллектив авт. – Т.: Шарқ, 2000.

13. Хўжаев Файзулло. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Toshkent: Fan, 1978.;
14. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
15. O'zbekistonda yer -suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) // Ma'ruzalar matni. - Samarqand, 2013.
16. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент, 2003.
17. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати. -Тошкент: Шарқ, 2009.

Konferensiya materiallari

1. Собирова Д.Т., Н.Акбарова. XIX аср охири - XX аср бошларида Фарғона водийсидаги оилавий маросимларда этномаданий муносабатлар // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” / Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Андижон, 2015.
2. А. Бадиров. Самарқанд вилоятида совет ҳокимиятининг кулоқлаштириш сиёсати // “Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари” мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2016.